

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

IV kurs kunduzgi bo`lim bitiruvchisi

SURAYYO AMINJONOVA G`ANIYEVNANING

**O`ZBEK JADID DRAMATURGIYASIDA BARKAMOL AVLOD VA
IDEAL JAMIYAT TALQINI**

mavzuyidagi

*5120100 Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Buxoro – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.

I bob. JADID DRAMALARIDA ESTETIK IDEALNING ADABIY-NAZARIY OMILLARI

I.1. Jadid dramalarda g`oyaviy dunyoqarashning estetik ideal darajasiga ko`tarilish jarayoni

I.2. Ijtimoiy muammolarning jadid adabiyotidagi talqini masalasi

II bob. JADID DRAMATURGIYASIDA KOMIL INSON VA IDEAL JAMIYAT MASALASINING BADIY TALQINI

II.1. Jadid dramalarida estetik idealning namoyon bo`lishi

II.2. Estetik ideal va ijtimoiy voqelik talqini

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Shaxs ma'naviy, ruhiy komil bo'lsagina uning haraktlari tetik tafakkuri ildam va intilshlari maqsadli bo'ladi. Xalq ruhini ifodalash, uning ma'naviy tiklanishi va millat estetik ideallarining shakllanishini badiiy mujassamlashtirish milliy adabiyotlar oldida turgan asosiy vazifalardandir.

«Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois, - deb yozadi Prezidentimiz I.A.Karimov, - ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik milliy iftixor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq ruhiy qudratining birinchi belgisidir.

O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir»¹

SHu boisdan jadid adabiyotini o'rganish milliy tiklanishimiz, o'zligimizni anglashimiz hamda milliy g'urur, milliy mafkura va adabiyotimiz tarixining eng chuqur va adabiy-badiiy ummumilliy qatlamlarini kashf qilishimizga yo'l ochadi.

Har qanday taraqqiyot tabiat va jamiyatning dialektik qonunlariga ko'ra amalga oshgani kabi, Mustaqilligimiz barcha voqea-hodisalarga xolis yondashuv tufayligina qaror topadi va mustahkamlanadi. SHu ma'noda Mustaqillik mafkurasi haqidagi tushunchaning ijtimoiy maydonga qo'yilgani fikriy bahslar asnosida haqiqatni oydinlashtirishga, tarix va tafakkur rivojini tabiiy ko'rinishlarda tadqiq etib baholashga imkon yaratdi.

El-yurt ozodligi, hurriyati, istiqloli, madaniyati, maorifi uchun o'z halovatidan kechib, kerak bo'lsa, hayotini xavfga qo'yib kurash uchun otlangan tabarruk insonlar – jadid ma'rifatparvarlari ijodini tadqiq etish, ularning komil

¹ Каримов И. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид ва барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.142.

insonni shakllantirish, tarbiyalash yo`lidagi harakatlarini tahlil qilish va ommalashtirish hamma davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, shuni ham e`tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, ma`rifatparvar bobolarimiz, faoliyatining eng muhim qirralari aynan sahna uchun mo`ljallangan asarlarda namoyon bo`ladi. Ularning bundan ko`zlagan maqsadlari ayon: xalqni ma`rifatli qilish, hattoki savodsiz kishilarni ham o`z maslamlari bilan tanishtirish, jaholatga qarshi kurashni umumxalq ishiga aylantirish bo`lgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshida shakllangan jadid adabiyotida ijtimoiy-estetik ideallar qanday shakllanganligini o`rganish fanga yangi xulosalar berishi muhim. An`anaviy mumtoz adabiyotda qo`llangan estetik ideallar o`tkan asr boshida yuksaldimi va yoki „Cho`lpon ta`biricha aytsak “bir xil, bir xil” ligicha qoldimi? Qolaversa, ushbu muammo dramatik turga mansub janrlarda qay tarzda namoyon bo`ldi?

Aynan jadid estetikasining ana shu qirralarini o`rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti juda ko`p qirralari o`zbek olimlari tadqiqotlarida o`rganilgan. Milliy adabiyotimizda, falsafa va estetika tarixida ijtimoiy-estetik ideal muammosi bir qadar o`rganilgan. I.Sulton, O.Sharafiddinov, M .Qo`shjonov, B.Qosimov, E.Karimov, N.Karimov, B.Nazarov, A.Jalolov, B.Do`stqorayev, H.Boltaboyev, D.Qur`onov, I.G`aniyev, N.Afoqova kabi olimlarning ishlarida estetik ideal badiiy adabiyotning muhim kategoriyalarifdan biri sifatida o`rganilgan. Biz bu muammoni jadid dramaturgiyasi misolida tadqiq etamiz.

Tadqiqotning maqsadi. Jadid adabiyotida estetik, ijtimoiy, axloqiy ideal nimalarni qamrab olganligi va uning badiiy adabiyotda qanday talqin qilinganligini, komil inson va ideal jamiyatning qay tarzda badiiy kashf qilinganligi masalasini o`rganishdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

-jadid dramaturgiyasida estetik idealning adabiy-nazariy omillarini belgilash;

- jadid dramaturgiyasidagi milliy uygʻonish gʻoyalarining estetik ideal darajasiga koʻtarilish jarayonini oʻrganish;
- jadid dramalarida ijtimoiy, sotsial muammolar talqinini kuzatish;
- jadid adabiyotida yaratilgan sahna asarlari misolida komil inson va ideal jamiyat masalasini oʻrganishdan iborat.
- mukammal jamiyat va uning aʼzosi boʻlmish barkamol shaxsni shakllantirishning asosiy omillari va yoʻllari masalasining badiiy adabiyotda ifoda etilishi masalasini yoritish.

Malakaviy bitiruv ishining manbalari: Milliy uygʻonish davri vakillari: Fitrat, Choʻlpon, Behbudiy, Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hamza kabilarning dramatik asarlari ushbu tadqiqot ishining manbalari tashkil etadi..

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi va tahlil usuli: Milliy istiqlol gʻoyasi va mafkurasi, jadid adabiyoti va estetik ideal, ideal shaxs tarbiyasi muammosi tadqiqiga bagʻishlangan fundamental tadqiqotlar va analiz metodi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzulishi: Kirish, II bob (4 fasl), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I bob. JADID DRAMALARIDA ESTETIK IDEALNING ADABIY- NAZARIY OMILLARI

II.1. Jadid dramalarda g`oyaviy dunyoqarashning estetik ideal darajasiga ko`tarilish jarayoni

Teatr, dramaturgiya jadidchilik harkatining va jadid adabiyotining bag`oyat muhim jabhalaridan bo`lgani uchun harakatning ma`rifiy, ijtimoiy hamda siyosiy maslamlari tomon yo`naltirildi, shu bilan mutanosib holda rivojlandi.

XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlar tafakkurga ham ta`sir ko`rsatdi. Bu ta`sir badiiy ijodda ayniqsa yaqqol namoyon bo`ldi. O`zbek adabiyoti qisqa davr ichida katta yutuqlarga erishdi. Yangiliklar orasida dastlab dramatik turga oid janrlarning yaratilishi, keyinchalik esa teatrning paydo bo`lishi va ommalashishi alohida ahamiyat kasb etdi. Bularning barchasi jadidchilik harakati va uning zamirida shakllangan yangilanish g`oyalariga xizmat qilgan jadid adabiyoti bilan izohlanadi. Real voqelikning she`r, dramaturgiya kabi janrlarga tadbiiq qilinishi epik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Adabiyotda muayyan estetik tamoyillar barqarorlasha bordi. «Bu adabiyotning mazmun-mohiyatini belgilagan asosiy estetik tamoyillar sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

a) jadidchilik haraktining ijtimoiy ideali jadid adabiyotining ham estetik idealiga aylanganidir;

b) ijtimoiy yo`naltirilganligi, ya`ni muayyan g`oyani singdirishga yo`naltirilganligi;

d) mavzusi jihatidan real hayotga yaqinligi;

e) mazmuni va shaklining xalqchilligi va shuning kabi tamoyillar jadid adabiyoti tadrijida muhim ahamiyat kasb etuvchi, uning yetakchi xususiyatlarini namoyon etuvchi belgilar edi.

XX asr boshlari Turkiston madaniy jarayonnining xarakterli xususiyatlari o`qituv tizimining isloh qilinishi, yangi adabiyotning shakllangani, milliy matbuot va teatrning paydo bo`lgani bilan belgilanadi. «1905- yilgi birinchi rus inqilobidan keyin Turkistonga turli g`oyaviy va estetik yo`nalishdagi turk, ozarbayjon va birinchi navbatda tatar adabiyoti va matbuoti tarqala boshladi», deb yozadi SH.Turdiyev.² Maorif sohasidagi islohotlar va mahalliy nashrlarning vujudga kelishida umumturkiy xalqlar bilan faol aralashuv samarali ta`sir ko`rsatgani singari dramaturgiyaning shakllanishida ham shu kabi omillar muhim asos bo`lib xizmat qildi.

Estetik ideal adabiyotdagi muhim tushunchalaradan biri bo`lib, u ijodkorning dunyoqarashi, maslagi, maqbul deb bilgan qimmatlarining ifodasi sifatida badiiy adabiyotda yuzaga chiqadi. «Estetik ideal – badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo`lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsning qanday bo`lishini anglatadi»³. Demak, ijodkor aynan salbiy ob-

raz, yoxud nomukamal hayot tasvirini tanqidiy chizar ekan, o`quvchida ifodalanayotgan idealining go`zalligi va buyukligini yaqqolroq tasavvur etish imkonini beradi. Ya`ni go`zallik, donolik, jismoniy mukammallik, butunlik, xunuklik, nodonlik kabi estetik kategoriyalar ham tasvirlanayotgan estetik idealning qirralarini ko`rsatishga yordam beradigan tushunchalardir.

Aynan milliy uyg`onish davri adabiyotida shakllangan qarashlar ma`rifatchilik g`oyalari, erk va istiqlol orzulari bilan uyg`unlashgan holda ijodkorlarning ana shu ulug`vor tushunchalar bilan bog`liq estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qildi.

Jadid ijodkorlari estetik qarashlari XX asr adabiyoti maydoniga yangi kirib kelgan va shuningdek, boshqa adabiy tur namunalaridan ko`ra xalqqa tezroq yetib

² Турдиев Ш. Чўлпон ва татар адабиёти (алоқалар тарихи, манбалари) ЎТА, 1997. -№9. –Б.10.

³ Хотамов Н., Саримсоёв Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоли луати. -Т.:Шыитувчи, 1979. –Б.116.

borish imkoniga ega bo'lgan dramatik tur janrlariga mansub asarlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Teatrning milliy ongga ta'sirini yaxshi anglagan ziyolilar uni axloqiy ta'limiy saboq beruvchi vosita hisobladilar.»Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning «Teatr – ibodatxonadir», deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir»⁴ Teatrni taraqqiy qilmoqni birinchi sababi ekani to'g'risida Mahmudxo'ja Behbudiy («Tiyotr nadur?»), Abdulla Avloniy («Tiyotr xususida munozara»), Tavallo («Teatr haqinda», «Teatrga maxsus») kabi jadid ziyolilar qator maqola va asarlar e'lon qildi. Millatni ma'rifat nuri bilan uyg'otib, ozodlik va taraqqiyot tantanasini orzulagan jadid ziyolilar maslak yo'lidagi buyuk amallardan biri teatr, deb tushundilar va shu yo'lda sa'y-harakat boshlab, qisqa bir muddatda g'oyat katta samaralarga erishdilar. Bir tomondan, qardosh xalqlar teatr truppalarining o'lkamiz bo'ylab safarlari, ikkinchi tomondan yetilib kelgan tarixiy sharoit tufayli o'lkamizda teatr va dramaturgiya shakllandi. Jadid ziyolilari orasida teatr asarlarini yaratish va uni sahnaga qo'yish harakatlari kuchayib ketdi. Bu albatta, ozarbayjon, tatar, turk teatr truppalarining Turkistonga kelib sahna asarlarini namoyish etishlari bilan ham bog'liq edi. Endi milliy teatrni yo'lga qo'yish, millat ruhini, ongini o'stirish uchun maishiy turmushdan olib yozilgan dramatik asarlar lozim edi. Dastlabki dramatik asarlarda ham ma'rifat va jaholat, ilm va ilmsizlik masalasidan bahs qilindi. Matbuot sahifalarida ko'tarilgan ijtimoiy illatlar, jaholat mavzusi dramalarda ham qalamga olindi. O'zbek jadid dramaturgiyasini maxsus tadqiq etgan olim SH.Rizaev shakllanish bosqichida o'nlab dramatik asarlar yaratilganini aniqladi va ularning taxminiy ro'yxatini keltirgan. Bizgacha yetib kelgan ayrim ilk dramalarning mavzu va mundarijasiga ko'ra, qolaversa, mavzu talabidan kelib chiqqan xolda uch guruhga tasniflash mumkin:

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.144.

1. Ma`rifatli shaxs – yozuvchi estetik idealini belgilagan dramalar.
2. Yozuvchi estetik ideali maishiy turmush va qahramonlar fojiasi fonida ifodalangan dramalar.
3. Ijodkornning ijtimoiy, estetik, axloqiy ideali kulgi vositasida anglashiladigan dramalar.
4. O`zbek jadidi dramaturgiyasida ana shuning kabi xususiyatlar alohida ko`zga tashlanadi. Ilk o`zbek jadid dramasi sifatida e`tirof qilingan «Padarkush» asaridagi ilm targ`ibi Behbudiylar publitsistikasida ham parallel ravishda qalamga olindi. Ular orasida «A`molimiz yoinki murodimiz» maqolasi alohida ahamiyatga egadir. Muallif kecha-kunduz mehnat va mashaqqatning boisi kelajakni ta`minlamoq ekani, bunning uchun tinimsiz harakat lozimligini uqtiradi. Lekin bu yo`ldagi sa`y-harakat qaysi maqsadga xizmat qilmoqda?

Ko`p yillar yiqqan, zahmat chekib ter to`kib to`plagan daromadini uch kunlik to`y uchun sarf qilinayotgani adolatdanmi? Qarz olib xalqqa osh berish evaziga umrbod qarzдорlik tamg`asini yelkaga osib yashash qaysi sog`lom jamiyatga xos? Isrof etilayotgan aqchalar millat bolalariga, yana ham aniqroq aytganda, «zamonaviy kishilar»ni yetishtirmoqqa berilsa bo`lmasmidi? Bu kabi savollar jamiyat rivojiga to`siq bo`layotgan illatlarga muolaja izlayotgan millatparvar adib iztiroblarining hosilasi edi. «Padarkush» dramasi Behbudiylarning bu qarashlari Ziyoli nutqida aks etadi. Asarda Ziyoli boyni dunyo o`zgarishlaridan ogoh etib, «Olimi zamoniy bo`lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodni chiqarib, zaruriyati diniya va o`z millatimiz tilini bilaturg`ondan so`ngra hukumatimizning nizomli maktablariga bermok kerakdur... Petreburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, doktorlik, zakunchilik va boshqa ilmlarni o`qitmoq lozimdir», desa, muallif yuqorida nomi keltirilgan maqolasida esa «talabalarni Makka, Madina, Misr, Istambulg`a va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig`a yuborilub diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar

yetishdurmoqqa sa'y-harakat qilinsun»,⁵ - deb aynan Ziyoli fikrlarini qaytaradi. Demak, ilk jadid dramalarida ziyoli obrazi – jadidlarning ideali darajasiga ko'tarildi. Millat dardiga davo izlovchi bunday kishilarning tipik obrazi jamiyatni isloh qilishga qodir kuchga aylandi. Negaki, millat ziyolilari faqat katta fidoyilik evazigagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini anglab yetgan edilar.

Behbudiy maqolasida «tarbiyaxonalarni ochmoq uchun va hukumat maktablarig'a bola tayyor qilmoq uchun nashri maorif yoinki jamiyati xayriya va yoinki arbiyai atfol jamiyati va yo ism ila xulosa, jamiyatlar kerakdur», degan xulosaga keladi. Nomlari sanab o'tilgan jamiyatlar amalda millat bolalarini o'qitish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash natijasida yurt istiqbolini ta'minlash masalasini dasturul amal qilib belgilagan edi. Birinchidan, muallif hukumat maktablariga bola tayyorlash deganda zohiran ushbu maktablarga qarshi emasligini izhor qilgan bo'lsa-da, botinan dushmanni o'z quroli bilan mahv etish g'oyasini ko'taradi. Ya'ni o'qimishli, ziyoli, asosiysi milliy kadrlar bilan ta'minlashga erishish nimalardan iborat va yurt ravnaqiga hissa qo'shdimi yoki aksinchami? Mana shu masalalar haqiqatini topish uchun ham chet tillarni, ayniqsa, rus tilini o'qish, o'rganish lozimligi kechiktirilmaydigan vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi. Ushbu maqolada Behbudiy istiqbolga ishora qiladigan biron bir jumlasini ko'zga tashlanmaydi. Aftidan, buning sababini jadidchilik harakatining hali ma'rifatchilik bo'chqichida voqealar natijasida dunyoqarashida, ruhiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar islohotchilik g'oyalaridan erkinlik, moddiy va ma'naviy barkamollikka erishish, mukammal jamiyat qurish, huquqiy tenglikka asoslangan fuqaroviy davlat barpo etishdek yuksak ijtimoiy-estetik ideallar tomon o'sib bordi.

⁵ Behbudiy. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2006. –Б.45.

II.2. Ijtimoiy muammolarning jadid adabiyotidagi talqini masalasi

Har bir asar, u badiiy ijod turiga mansubmi, publitsistik yoki ilmiymi qat'i nazar, muallif ichki «men»i, voqea-hodisalarga yoki kishilarga individual munosabati o'z ifodasini topgan bo'lardi. Ijodkor o'z dunyoqarashi, ong va ong osti zahirasiidagi tushunchalardan yuqori darajada yoza olmaydi. Ko'rgan-kechirganlari, o'rganganlari yoxud faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan holatlar natijasida ma'lum bir munosabat shakllanadi. Subyektning o'rganilayotgan obyektga munosabatida mohiyatga qarab ijobiy yoki salbiy yondashuv yuzaga keladi. Uni qoniqtirmaydigan voqealar, jamiyat va inson borlig'iga nisbatan nafrat asarlarda fojeaviy yoki hajv yo'li bilan ifodalanishi mumkin.

O'tgan asrning boshlarida yaratilgan asarlarning aksariyatida mana shu jihatni kuzatish mumkin. Lekin asarlar tagmatnida faqatgina nafrat hissi ustunlik qiladi, desak xato bo'ladi. Hajviy qahramonlar muallif yoki boshqa obrazlar nutqi orqali emas, o'z-o'zini fosh etish yo'li bilan yuqoridagi savolning javobiga bir qadar oydinlik kiritdi. «Padarkush»dagi boyning «xambozasini ko'rib xalq beto'xtov kulishi»ning sababi ham shunda. Bu obrazning ziddi hisoblangan Domula va Ziyoli obrazlarining fikri bir nuqtada tutashib, yozuvchining ideali – zamona odamlarini tarbiyalash va millat ravnaqi yo'lida xizmat ettirishdek ulkan g'oyani tashkil etadi. SHuningdek, Behbudiy savdo erkinligi masalasini ham ko'taradi. Aynan shar'iy bilimlarni chuqur egallagan Domulla ilmsizlik natijasida savdo ishlari ham armani, yaxudiy, ajnabiylar qo'liga o'tib ketganidan afsuslanib, boyni ogohlikka da'vat etadi. Buni ziyoli ham ta'kidlab, «...ilmi tijorat, ilmi iqtisod va boshva ilmlarni o'qutmoq lozimdur», deydi. Demak, jamiyatda har tomonlama yetuklikka erishish uchun, avvalo bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash kerak.

«Padarkush» o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia»

atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo`n. U jaholat va nodonlik o`qimagan bolaning buzuvchi yo`llarga kirib, o`z otasini o`ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o`ylamagan boyning Toshmurod ismli o`g`li bor. O`gli o`qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o`glini o`qitmaydi, oqibatda u ko`cha bezorilariga qo`shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg`onib, ularni sezib ko`radi. Boyni o`ldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: Jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?! «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo`yildi. «Xalq nihoyat ko`p kelib, bilek yetmagani va joyni yo`qligi uchun uch-to`rt yuz kishi qaytib ketdi», deb yozadi mahalliy matbuot.

Yana o`sha yerda o`qiymiz: «Biletlar bir-ikki kun avval yoshlarni g`ayrati bilan sotilib tamom bo`lub edi. Ba`zi kishilar biletlarini ikki bahrga foydasi bilan boshqaga sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonaga hujum qilgan. Ammo bilek yo`q. Uch so`m berib, tikka turmoqqa ham rozi, yana yer yo`q...»

Spektakl o`z maishatiga o`ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta`sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o`g`li o`ynagan edi. «Boyni hamboza (xurak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz qulardi», yozadi taqrizchi. «Domla (Mardonqul Shomahmud o`g`li) va ziyoli (Mirza No`mon Mulla Fozil mufti o`g`li)ni nasihati xaloyiqni ko`ngliga ta`sir etardi, hatto va`zu pandga yig`laganlar bor edi», - o`qiymiz taqrizda. Ayniqsa, boyning o`z o`gli yordamida o`ldirilib, mol-dunyosining fahshu ishrat uchun olib ketilishi voqealari kishilarni larzaga solgan. «Bu faje` va alamlik manzarani parda yopar. Xalqga haddan ziyoda ta`sir. Ba`zi kishilar fojiadan ko`z yumarlar...»

Chamasi, asarning ijrosi ham baland saviyada bo`lgan. Taqrizdagi «Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etardi. Hatto 20 yildan beri teatr ma`muriyatidagi odamlar ta`rif qurdi... aholidagi olqish ibratxonani gumbirlatur...» degan jumlar shunga ishora qiladi.

Toshkentda 1914- yilning 27- fevralida qo'yildi. Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o'z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqida nutq so'zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun», deb yozadi.

«Turon» truppasi 1914-16- yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. «Padarkush» Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yo'ldan, professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shoxidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur «1913- yillarda chiqqan «Padarkush» pyesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim», degan e'tirofini eslash kifoya. 1916- yilda Toshkentga kelib, Kolizeyda «Turon»ning qator spektakllarini ko'rgan A.N.Samoylovich yozadi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi - Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiylardir».

Dramaning birgina o'zbek emas, tatar, ozarboyjon teatrchiligiga ham ta'siri haqida gapirish mumkin. Turkistonda shu yillari Zaki Boyazidskiy, Aleksandr Askarov, Sidqiy Ruhillo, Ilyosbek Oshkozorskiy kabi ko'plab qardosh rejissyorlar faoliyat ko'rsatganini xotirga olaylik.

Behbudiylar Ziyoli va Domullaning nutqini asoslash uchun beilmlikning o'ta salbiy oqibatini tasvirlaydiki, u tomoshabinga albatta ta'sir ko'rsatishi tabiiy edi. Teatrning kuchi nafaqat tomoshabin, balki jadid ijodkorlarni ham to'lqinlantirdi. Ma'rifat ular intilgan eng yuksak maqsad – ideal darajasiga aylandi.

«Padarkush» birinchi boʻlib boshlab bergan maʼrifat gʻoyasi taʼsirida oʻnlab dramatik asarlar yaratildi va sahnalashtirildi. Birinchidan, 1911- yilda yozilib, 1913- yilda Samarqanda sahnalashtirilgan ilk dramatik asar oz fursatda butun Turkistonga yoyildi. Jaholat tanqidi, ilm targʻibi aks etgan ushbu drama nafaqat ziyolilar, balki butun xalq ruhiyatiga taʼsir koʻrsatdi. Garchi Behbudiy asar sahnalashtirilayotganda muallifdan ruxsat olishi shartligini uqtirgan boʻlsa-da, asarning turli joylarida qayta-qayta yoʻnalgan haqidagi maʼlumotlar yangilikka tashnalikning kuchliligidan darak beradi.

Bor-yoʻgʻi bir necha sahifani tashkil etgan asar butun Turkistonni junbushga keltirdi. Dastlab Samarqandda, soʻngra Toshkent, Qoʻqon, Kattaqoʻrgʻon, Buxoro, Andijon, Namangan kabi koʻplab shaharlarda sahnalashtirilgan «Padarkush» peyesasi, avvalo, milliy dramaturgiya va yangi teatr sanʼatining ilk namunasi boʻlsa, ikkinchidan, shoʻro shoʻrolarda teatrlarning tashkil topishini belgiladi. Qolaversa, teatr vositasida maʼrifat gʻoyasini xalqqa keng va taʼsirchan yoyish, singdirish imkonini berdi.

Shuningdek, drama taʼsirida Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Hamza singari adiblar yangi janrga qoʻl urib, ijodiy imkoniyatlarini sinab koʻrib boshladilar. Shunday qilib, jadid dramasi shakllanish bosqichiga kirdi. Ularning fikriga koʻra, barcha oʻzbek millati birgalikda qiz va oʻgʻillarini tarbiya qilmaguniga qadar kelajakda taraqqiy eta olishmas va namunali oilalar chiqmasligi aniqdir.

Hoji Muinning yaxshi kelajak garovi sifatida bergan bu kabi tavsiyalari dramatik asarlarida batafsil yoritildi. Uning Komilboyi («Eski maktab, yangi maktab») ham «ochiq fikrli, yangi maktab tarafdori» sifatida Behbudiy orzuidagi Ziyoli («Padarkush» qahramoni)ga juda yaqin. Agar Avloniy Kamol, Hamza Mahmudxonu Maryamxonlar fojiasida ota-ona va farzand muammosini sabab qilib koʻrsatsa, eski va yangi maktablar muqoyasida Hoji Muinning ijtimoiy muammolarga munosabati aks etgan. Komilboyning «Hozir Turkiston minglarcha maktablar, yuz minglarcha farzandlarimiz shundoq johil maktabdorlarning

qo`larida xarob va parishon holdadirlar», degan maorifdagi turg`unlikdan kuyinib aytgan so`zlari amaliy faoliyatga aylanib, yangi maktabga asos bo`ladi.

Usuli jadid maktablarida olib borilayotgan diniy va dunyoviy ilmlar nafaqat kelajak avlod, balki millat istiqboli yo`lidagi sa`y-harakatlardan biri ekani ta`kidlangan. Komil – muallifning estetik idealini belgilay olgan obrazdir. U yangilik tarafdori. Ta`lim islohi uchun borini tikishga shay insondir. Eski maktab mudarrisi Domla va Behbudiy Domullasining tamoman aksi, jadid maktablariga munosabati salbiy. Aynan mana shu obraz adib ideali – Komilboyning yanada yaqqolroq tasavvur etish imkonini beradi. Komilboy ham xuddi Ziyoli va Domulla («Padarkush» qahramoni) kabi jamiyatning faol a`zosi sifatida atrofida kechayotgan inqirozga chora istaydi. «Inqirozdan qutulmoq uchun birgina yo`l borki, ul ham maorif yo`lidan iboratdur. Shoyad maorifga kirmoq uchun yana bir yo`l borki, ul yangi maktabdur»⁶

Dramada ko`rilgan yana bir obraz, xuddi Komilboyning o`zini eslatuvchi, unga yaqin bo`lgan obraz muallim obrazidir. U Komilboy singari yangilik tarafdori. Yangi usul jadid maktablarining yosh o`qituvchisi sifatida asarda bosh qahramoning ijobiy xususiyatlarini to`ldirib keladi. Uning o`zi ham diniy va dunyoviy bilimlar sohibidir. Yosh avlodni tarbiyalashga chog`langan ma`rifatparvarning o`zi har tomonlama komil bo`lmog`i lozim edi. Asar xotimasida muallif badiiy niyatga erishadi, ya`ni Komilboy eskilik tarafdori bo`lgan domla imomni o`zining haqiqatga – jadid maktablarining foydali ekaniga ishontiradi.

Dramada qalamga olingan g`oya – qadim va jadid muammosi jadidlarning dastlabki asarlarida barcha ziyolilarni qiynagan savol sifatida o`rtaga tashlanadi. Xoji Muin murosa, birlashish yo`lini tanlaydi. Asar yakunida Komilboy va Domla imom munosabati ham Ziyoli hamda Domla obraziga yaqinlashib qoladi. Demak, har ikkala adibni bir maslak, ideal bir nuqtaga tutashtiradi. Yangi maktab ochib

⁶ Хожии Муин Шукрулла. Эски мактаб, янги мактаб. –Т.Ризаев. Жаиди драмаси. –Т.: Шарқ, 1997. –Б.260.

qator shogirdlar tayyorlayotgan, ezgu harakatiga boshqalarni ishontira, ergashtira olayotgan bo'lsa-da, qilayotgan ishlaridan qoniqmagan Komilboy «Hozircha din va millatim uchun tilga olurlik zo'r xizmat qilgan bo'lmasam ham, lekin mundan so'ngra jonim boricha boru budimni shu muqaddas yo'lda sarf qilmoq niyatidaman!», - deydi. Avvalo diniy, so'ngra zamonaviy bilimlar ila qurollangan, asosiysi egallangan ilm-u savratini millat ravnaqiga xizmat qildirishga shay zamona kishisi – ilk jadid dramalarida ifodalangan estetik ideal namunasi edi, deyish mumkin.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasida ham aslida bir oilaning fojiasi haqida hikoya qilinadi. Lekin unda ko'tarilgan masala umummillat turmushiga aloqador bo'lgani, qolaversa, faqat jaholat va ma'rifat tushunchalari yoritilgani uchun ham uni birinchi o'ringa mansub deb topdik.

Davr adabiyotida yozuvchi estetik ideali maishiy turmush va qahramonlar fojiasi fonida ifodalangan dramalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Jadid ziyolilari islohnini avvalo oiladan boshlash lozimligi xususida kuyinib yozdilar. Qachonki, jamiyat ravnaqi uchun bilimdon, vatanparvar yoshlar kerak ekan, ularga yo'l va imkon beradigan sharoit ham darkor edi.

Bolaning o'zligini anglashi, qanday inson bo'lib voyaga yetishida avvalo oila muhitining o'rnini katta. Shuning uchun ham jadidlar (masalan, Abdulla Avloniy «Oila munozarasi», Abdurauf Fitrat «Oila», Said Ahroriy «Oila kitobi», Hoji Muin «Oila kitobi») oila xususida o'nlab asar va risolalar yaratdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi ta'sirida yaratilgan «Baxtsiz kuyov» (Abdulla Qodiriy asari) dramasini syujeti ham bevosita oilaviy muammolar bilan aloqador. Asar o'sha davr uchun juda zarur muammolardan biri bo'lgan to'y va oliq-soliqlar to'g'risidadir. Drama adib orzusidagi muayyan bir obrazni ko'rmaymiz. Lekin oila fojiasi fonida Qodiriy istagan mukammal turmush, tenglik masalasini anglash qiyin emas. O'quvchida bu sezimni paydo qilish uchun adib bir qancha vositalardan foydalanadi. Birinchisi, ellikboshi obrazidir. Drama avvalida adib uni o'ttiz besh yashar, yangi fikrli kishi deb tanishtiradi.

ellikboshining zamona ahvolidan boxabarligi Abdurahim bilan birgalikda Fayziboynikiga sovchilikka borgandagi suhbatda yanada oydinlashadi. Ya`ni u Fayziboyni haddan ortiq soliq solishdan qaytaradi. Chunki bo`lg`usi kuyov yetim, uning qarz ko`tarmoqdan o`zga iloji yo`q. Qarz olib to`y berish musulmonchilikka ham, sog`lom jamiyatga ham xos emasligini harchand uqtirsa-da, na johil boyni, na uni qo`llab-quvvatlab turgan ilmsiz imomni maqsaddan qaytara olmaydi. Ellikboshining johil otani bid`atdan qaytara olmasliginning boisi boshqa edi. Aslida yozuvchi oqibatni tasvirlab, keyin sababni ro`y-rost ko`rsatishni niyat qilgan. Natijada ellikboshi guvohligida yozuvchi kutgan fojia sodir bo`ladi. Ya`ni qarzni muddatida qaytara olmagan yigit nomusga, chorasizlikka chiday olmay, o`zini o`ldiradi, eng dahshatlisi kelin ham jaholat, bid`at qurboniga aylanadi. Bu judolikka chidolmay dodlab turgan Fayziboyga murojaati vositasida yozuvchi xalqqa, o`quvchiga haqiqiy niyatini oshkor etadi: «Shari`ati mustafog`a buysuninglar, endi ko`zlaringizni ochinglar. Bid`at to`yg`a isrof bo`ladurg`on oqchag`a o`g`lingizlarni o`qitunglar yoki jamiyat xayriyalarga iona qilinglar. O`g`il o`qutmoq yaxshi ham farzdur, to`yg`a isrof qilmoq bid`atdur».⁷ Demak, ellikoshi yozuvchining ma`rifat idealini ifodalashga xizmat qilgan.

Fayziboy, Domla imom va Boy obrazlarining tanqidiy qiyofasi vositasida adib bunday kimsalarning ziddi bo`lgan shaxslarni orzu qiladi. Ya`ni Fayziboyning kibri, ochko`zligi, Domla imomning ilmsizligi, jaholati, Boyning riboxo`rligi tanqidda aslida yetimparvar, millatni turli bid`atlardan qaytaruvchi, el-yurt manfaatini o`ylaydigan kishilarga ehtiyoj masalasi turgan edi. Shunday qilib, maishiy turmushdan olib yozilgan dramalar mavzu va son jihatdan o`sib bordi.

Abdulla Avloniyning «Biz va siz»da bosh qahramon ziyoli, yevropadan qaytgach, eskiliklar hamon davom etayotgan turmushga ko`nika olmayotgan yigit. Dramada jiddiy mulohazlar orqali voqealar liniyasi fojiaga aylana boradi,

⁷ Қодирий А. Диёри бакр. Шеърлар, ҳикоялар, САҳна асарлари, ҳангома, фелъетон ва моқолалар. –Т.: Янги аср авлоди, 2007. –Б.39.

qahramonlar taqdiri ayanchli xotima topadi. «Biz va siz»da oiladagi, turmushdagi jaholat, ilmsizlik fosh etiladi. O`n yil Yevropada tahsil olib qaytgan Kamol ham ruhiy va jismoniy, ham ma`naviy jihatdan barkamol yigit. Tahsili davomida yurtida kechayotgan o`zgarishlarni eshitib, xursand bo`lgan qahramon uyga qaytgach, tamoman aks manzarani ko`rib qayg`uga botadi. «Emdi nima qilmoq kerak?» degan savol uni qiynaydi va «...men o`zinga lozim bildim, jazm qildim, bular turmushida qat`iy kurash yasashg`a. Bu kurashda yo men yengarman, yo ular»<sup>8</sup>, - degan qarorga keladi. Mana shu yerda adibning, shuningdek, butun jadidlarning g`oya-maqсадlari aniqlashadi. Faqatgina isloh yo`li bilan maqsadga erishish mumkin.

Vaziyat talabiga ko`ra isloh turli ko`rinish kasb etishi mumkin. Nima bo`lganda ham maqsad sari chora, najot kerak! Asarda keltirilgan muallif qalamiga mansub:

Garchi manzildur xatarlik ham yiroq maqsudimiz,
Hech yo`l yo`qdirki unda poyon chekma g`am.
Har kishida bir g`arazdur, har ko`ngulda bir xayol,
Har kim o`z ummidining qurboni, Hijron, chekma g`am.⁹

She`ri esa umidsizlikka tushmay, tortishuvga, kurashga undaydi. Masalaning qiyin tomoni shundaki, farzand ota-ona, qavm-qarindoshga qarshi. Haqiqatan olib qaraganda, ota-onaga osiy bo`lish – og`ir gunoh. Lekin Kamolning bunday «gunohkorligi» o`zini oqlaydi. Ota-onasi tomonidan o`zi tanimagan, bilmagan qizga nikohlanishga majbur qilingan Kamol isyon ko`taradi. «Men sizning buzuv xurofotlar bilan to`lg`on turmushingizni istamayman. Yangi turmush istayman! Yangi hayot istayman! Mana shu yangi turmushga menga rahbarlik qilg`udek, oila

⁸ Авлоний А. Танланган асарлар. II жилдлик. II жилд. –Т.: Маънавият, 1998. –Б.157.

⁹ Ўша асар, 157-б.

boshlig'i bo'lgudek yo'ldosh istayman. Men yangi xayol va siz eski xayol...»¹⁰ Hamzaning qahramoni Mahmudxon («Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» pyesasi qahramoni) ham xuddi shu vaziyatga tushib qolgan, u ham «Menga hayot kerak! Hayot uchun ko'nglum istamish maqsad kerak, u maqsad esa Maryamxonimdan boshqa emas!»¹¹, - deydi. Bu yerda har ikki ijodkorning oila islohi, xotin-qizlarning o'qimishli bo'lishi jamiyat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shilishi haqidagi qarashlari ifodalangan. Kamolning sevgilisi Maryam tengdoshlari, mahalladoshlari, qolaversa, zamondoshlari orasida sanoqli bo'lgan ilmiy qizlarning bittasi. O'n yillab Yevropada o'qigan, dunyoqarashi keng Kamolday yigitning ko'nglidan joy ola bilish uchun ancha-buncha fazilatlariga ega bo'lmog'i lozim. Maryamda shunday xislatlar mujassam. «O'qug'on, axloqlik, chiroyli qiz» Maryamni Kamol «ul farishta, ul shoira», deb ta'riflaydi. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» fojiasida esa ma'rifatli insonning «jaholat va g'afolat zindoni»dagi fojiali taqdirini ko'rsatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza «Turkiston maishatidan olingan qiz-kuyov fojiasi» deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlarning o'zlariga munosib bo'lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganlarini ko'rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi. ota-onalar bilan ulardan ilgarilab ketgan va o'z zamoniga sig'may qolgan yoshlar o'rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, pirovardida kamolning jadal tortilgan yoyidek uchib boradida, har ikkala qahramoni — Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi.

Hamza bu pok niyatli, olijanob, ma'rifatli insonning halok bo'lishi sabablarini ularning mol-dunyo insondan ko'ra aziz bo'lgan jamiyatda, yashaganlarida ko'radi. Ular — «jaholat, g'afolat zindoni»da yashayotgan Mahmudxon va Maryamxonim, rus dramaturgi A.S.Griboedov aytmoqchi, o'z aqliliklari tufayli

¹⁰ Ўша асар, 162-б.

¹¹ Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Учинчи том. Драмалар. (1915-1920). –Фан, 1988. –Б.20.

qurbon bo'ldilar. Ularning bu muqarrar halokati, ayrim Hamzashunoslar talqin etganlaridek oktyabrdan avvalgi tuzum tufayli emas. Hamza o'z asari orqali bir-ikki kishining ma'rifatli bo'lishi bilan ma'rifatli zamon kelmaydi, Maxmudxon va Maryamxonlar ortidan ma'rifat bahrinning o'nlab va yuzlab qaldirg'ochlari uchishi, butun xalq «jaxolat va g'aflat zindoni»dan qutulib, ma'rifat» nuridan bahramand bo'lishi lozim, taraqqiyot mana shuni taqozo etadi, degan g'oyani ilgari, surgan. Hamza xuddi shu bilan «Zaharli hayot»da «Yangi saodat»ga nisbatan bir qadam olg'a ketgan.

Maxmudxon dramaturg izohiga ko'ra, «xushmo'ylab, soqolsiz, sochlik, ko'zida oynak bor, butun ovrupocha kiyingan», «eng yuqori darajada ochiq fikrli, xususiy muallim olib o'qumish, tarbiya ko'rmish, millatparast bo'lib, Mirzahamdamboyning yolg'iz o'g'li, 18 yoshdadir». Bu izohning o'zidanoq dramaturgning Mahmudxon obrazida o'z davrining ilg'or kishisiga xos fazilatlarni mujassamlashtirishga, ana shu kishini yoshlarga ovrupocha madaniyat, hur fikrlilik namunasi sifatida taqdim etishga intiladi. Mahmudxon obrazi orqali o'z istak va qarashlarini ifoda etishga kirishadi.

Muhammad Hodi va Husayn Jovid singari o'ziga xos maktab yaratgan Ozabayjon adabiyotining yorqin vakillari bo'lgan ijodkorlarning adabiy ta'siri o'zbek adabiyotida sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Husayn Jovidning 1912 yilda yozilgan «Maral» dramasi dastlab «Bechora ayol» sarlavhasi ostida «Inqilob» gazetasida chop etilgan. Husayn Jovid dramalarida xotin-qizlar obrazi, ayniqsa, Adulla Avloniy dramalari qahramonlariga mushtarakdir. Ya'ni har ikki ijodkor estetik ideali ma'rifatparvar hamda millat uchun kurashuvchi vatanparvardir.

Husayn Jovidning dramasida faqatgina nomuvofiq nikoh emas, balki ota-ona va farzand o'rtasidagi ziddiyatlar, jaholat masalalari ham ko'tarilgan. Jamil Tursunbek ismli boyning o'zli. Ota-bola tamoman ikki xil fikrlaydigan odamlar toifasiga mansub. O'g'li Jamil – shoirfe'l, insonparvar, ilimli yigit bo'lsa, ota esa faqatgina o'z manfaatini o'ylaydigan, ustiga ustak johil shaxs. Ular orasidagi ziddiyat ham maishiy muammolardan kelib chiqadi. Ya'ni ota o'g'lini boy bir

xonadonning qiziga uylantirish niyatida. O`qimishli, kambag`al qizni kelin o`rnida ko`rishni hatto tasavvur ham qila olmaydi.

Turxanbek Avloniyning «Biz va Siz» dramasi­dagi Karimboy obrazini esga soladi. Ya`ni Karimboy bilan Turxanbeklar yangilik bilan chiqisha olmayotgan qadimchilarning tipik vakilidir. «Biz va Siz»da Komilning do`sti Ahmad ziyoli, o`ziga hammaslak bo`lsa, Husayn Jovidda ham shunday obraz bo`lib. Nodirbek ham huquqshunos. Asardagi Jamil, Humoy, Aslan va Maral obrazlari – yangi fikrli kishilar timsollaridirlar. Qarama-qarshiliklarga qaramay romantik his-tuyg`ularini asrab qolgan, turxanbeklar oilasida tug`ilib o`sgan yoki yashayotgan bo`lishlariga qaramay ular amal qiladigan axloq normalari, yashash tamoyillaridan ancha uzoq bo`lgan, o`zlari mansub bo`lgan muhitning ziddi, ya`ni mukammal jamiyatni orzu qiladigan qahramonlardir. Ular yuksak g`oyalarini to`la amalga oshira olmagan bo`lishlari mumkin, lekin timsolida yangi zamon orzusini ifodalagani bilan ahamiyatlidir.

Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», Hamza Hakimzodanning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari», Hoji Muinnning «Mazluma xotun» dramalarida ham xuddi «Biz va Siz»dagi kabi avvalo oila fonidagi ma`rifat va jaholat ziddiyati orqali muallifning ijtimoiy-estetik ideali anglashiladi. Qatnashuvchilarga berilgan ta`riflarda ham ma`rifatli kishilarning yorqin tasviri muhabbat bilan chizilgani ko`rinadi. Masalan, Hoji Muin «yangi fikrlik va to`g`ri so`zlik, usuli jadidchi» (Muallim, «Mazluma xotun»), Hamza «xipcha bo`yluk, xushmo`ylab, soqolsiz, kiyingan, demak eng yuqori darajada ochiq fikrli» (Mahmudxon «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari») deb yozadi. Bu pyesa Hamza Hakimzodanning pyesa janri ustida ish olib borib, yaratgan dastlabki asarlaridan bo`lib, sodda va ravon tilda yaratilgan hamda asarda romantik usul unsurlari yaqqol seziladi. Asar dramaturgiya talablariga to`laligicha javob beradi. Qolaversa, jadid adabiyoti va estetikasida muayyan aniq maqsad mavjud edi, g`oyani yetkazish uchun esa soddalik eng maqbul usul sifatida o`zini oqlaydi. Demak, bu dramalarda ham islohp­arvar yoshlar yetuk kishilar sifatida gavdalantirilgan, lekin bu obrazlar

musanniflarning oiladagi fikriy uygʻoqlik, nikohdagi tenglik, jamiyatdagi farovonlik kabi mushtarak estetik idealni koʻrsatishga xizmat qilgan xolos. Jamiyatda savollariga javob, muammolariga chora topa olmagan qarhamonlarning fojeiy qismatga roʻbaroʻ boʻlishi ulardagi ijobiy fazilatlarga soya tashlamaydi, aksincha, yozuvchi idealini nechogʻlik balandligini koʻrsatishga hissa qoʻshgan.

Yozuvchi estetik ideali achchiq kulgi, shafqatsiz tanqid vositasida anglashiladigan asarlar ham bu davr dramaturgiyasining xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

«Advokatlik osonmi?» dramasi muallif bir pardalik kulgu deb aytasa-da, aslida bu istehzoli kulgu ortida yurt istiqboli tugul, hatto oʻz haq-huquqini bilmaydigan, toʻgʻrirogʻi, bilishni ham istamaydigan kishilar tasviri berilgan.

Asarda bir nechta muammo yuzasidan bahs boradi: savodsizlik (Xudoyberdi chol misolida), toʻylarni dabdaba bilan oʻtkazish orqasidan kelib chiqqan qarzdorlik balosi (Egamberdi aravakash), Oilaviy munosabatlar (Mehriniso) va boshqa masalalar. Advokat yigit Davronbek – ijodkor estetik idealidagi obraz. U Evropada taʼlim olgan, oʻz kasbining bilimdoni boʻlgan 24 yoshdagi yigit. Adib uning ishxonasini tasvirlab: «mukammal yevropacha bejalgʻon uy. Bir tarafda qozuqlarda osilgan kamzul, shim, shkaflar turar. Ustol-ustullar mukammal holatda tuzalgʻon boʻlur edi»,¹² - deydi. Keltirilgan detallardan yetti yil xorijda tahsil olib qaytgan Davronbekning nafaqat dunyoqarashi, balki yurish-turishi ham oʻzgarganligi maʼlum boʻladi.

Davronbek – yozuvchi idealidagi ziyoli yoshlarning umumlashtirilgan obrazi. Yoʻq, u nafaqat zamondosh tengqurlaridan farqli oʻlaroq xorijda tahsil koʻrgani uchungina baland oʻringa qoʻyilgan emas. Qolaversa, jadid adabiyotida Yevropa madaniyatiga koʻr-koʻrona taqlid qattiq qoralangan oʻrinlar talaygina. Fitratning «CHin sevish» (Rahmatulloxon misolida), Abdulla Avloniyning «Madaniyat toʻlqunlari» asarlari fikrimizga misol boʻla oladi. Davronbek esa oʻzi

¹² Авлоний А. Танланган асарлар. II жилдлик. II жилд. –Т.: Маънавият, 1998. –Б.130.

yashayotgan muhitdagi illatlarni davolashni istaydi, ayni paytda maslagi yo`lida ojiz. SHuning uchun ham «bunlarning orasiga ilm va madaniyat nurlari yoyilib, inson qatoriga kirmaguncha o`zlari eshikma-eshik ovora bo`lganlari bir sari, menga o`xshagan o`z elimg`a, xalqimg`a foyda yetkuraramukunman degan kishilarning miyasini qoqub, qo`lig`a berub oz fursatda jinni qilishlari tabiiydur!»<sup>13</sup>, - deb qochib ketishni ham istaydi. To`g`ri, adib bir o`rinda «inson qatoriga kirmagan» ta`rifi bilan qora bo`yoqlarni biroz quyuqlashtiradi, ammo bu orqali najot yo`li ilmda ekanligiga ishora qiladi, ya`ni inkor qilish yo`li bilan ijtimoiy va estetik jihatdan yetuk hamda jamiyat inson timsoli talqinini beradi.

Abdulla Badriynning bir pardali «Axmoq» dramasida ham dunyobexabarlik, jaholat kulgi vositasida tanqid qilinadi. Dramada bor-yo`g`i ikkita personaj qatnashadi. Biri yangiliklardan boxabar gazeta muharriri, ikkinchisi uning tamoman ziddi Eshmurod obrazi. Eshmurod dunyoda gazeta degan narsa borligini bilmaydi. Muharrirning yoniga e`lon bostirish uchun kelgan Eshmurodning suhbat jarayonida nechog`lik ma`nan zaif ekanligi oydinlashadi. Gazetada e`lon matni topshirilganidan keyin bir-ikki kun o`tib chop etilishini ongiga ham sig`dirolmay, muharrirga qarata: «Eshmurod – Yo`q, taqsir! Manga hozir yozib berasiz, ertaga men kelolmayman. Ishim ko`b! (Nosboy chakar.)»¹⁴, - deydi. SHuning o`zi ham o`quvchida kulgiga ayni paytning o`zida achinish hissini uyg`otadi.

«Pinak» (Abdulla Avloniy), «Ko`knori» (Hoji Muin) kabi dramalarda esa na o`z holidan va na millat ahvolidan bexabar bangilarning nihoyatda kulgili va jirkanch turmush tarzi ifodalangan. «Ko`knor, bang va chakida iste`molig`a giriftor bo`lgan kishilarning ishlari: g`iybat, shikoyat, xurofot, afsonago`ylik va bedanabozlikdan iborat bo`lub, kiyadurgan kiyimlari nihoyatda kir va yirtiq» (Hoji Muin) holda tasvirlanishining o`ziyoq tomoshabinda ularga nisbatan nafratni uyg`otadi. Masalan:

¹³ Ўша асар, 138-б.

¹⁴ Абдулла Бадрий. Ахмоқ. – Ш.Ризаев. Жаид драмаси. –Т.:Шарқ, 1997. -243.

«Bobosharof (boshini ko'tarib, burnini qoqib) - Ha, bedanangizga suv berdingizmi? (Tanini qashib, yana ko'knor ezar.)

SHohmussa - Ha, jo'ra! Bedanamga og'zimdan suv berdim. Jonivor juda suvsagan ekan. Tilimni ham cho'qiydi-o. (Bedanasinning oyog'larini og'ziga solib, chiqarar.)¹⁵

Bu esa aynan yozuvchi kutgan holat. Negaki, voqea-hodisaning tomoshabin ko'z o'ngida namoyon bo'lishi uni bir muddat bo'lsa-da, qahramonlar bilan yashashga majbur etadi. Insonlarni aqlan, qalban va jismonan uyg'oqlikka chaqirish, uchala jihat uyg'unligida o'zini hamda turmushni rivojlantirish – kulgi fonida anglashiladigan ideal edi.

Xulosa qilib aytganda, «Padarkush» dramasi yartilgan davrdan to 1917 yilgacha o'zbek dramaturgiyasi shakllanish bosqichini boshdan kechirdi. Bu bosqichda mualliflarning estetik ideali zamon va jamiyat ehtiyojlariga qarab o'zgarib, barqarorlashib bordi. 1911-1916-yillar oralig'ida yaratilgan dramalarni tasniflash jarayonida, yozuvchi estetik ideali asosan bir-biriga yaqin yo'nallarda ifodalanganini kuzatamiz. Bu yo'nalishlarning barisi, albatta, jadid ma'rifatparvarlarining adolat, haqiqat, istiqlol va ma'rifat tomonga xalqni yetaklovchi estetik ideallar bilan sug'orilgan edi.

¹⁵ Ҳожи Муин Шкурулла. Кўкнори. – Ш.Ризаев. Жадид драмаси. –Т.: Шарк, 1997. –Б.274.

II bob. JADID DRAMATURGIYASIDA KOMIL INSON VA IDEAL JAMIYAT MASALASINING BADIY TALQINI

II.1. Jadid dramalarida estetik idealning namoyon bo`lishi

Jadid teatri va dramaturgiyasini haqli ravishda ikki bosqichga, ya'ni shakllanish va takomil bosqichlariga ajratish mumkin. 1911 yil Behbudiy tomonidan «Padarkush» dramasi orqali o`lkada yangi janrga asos solingan bo`lsa, 1917 yildan keyin yozilgan dramalar esa shakl va mazmun mukamalligi bilan bu yangilikning ancha o`rinlashganidan darak beradi. Dramaturgiyaning shakllanishi, asarlarning saviyasi va soni to`g`risidagi muayyan qarashlar taqriz-maqolalar zahirida san`atshunoslik sohasi ham teatr bilan birga shakllana boshladi. Hoji Muinnning «Yangi asar», Miyon Buzruk Solixovning ««O`zbek teatri tarixi uchun materiallar», Abdulla Avloniyning «Teatr xususida munozara», Vadud Maxmudning «CHin sevish», «Hind ixtilolchilari» haqida», A.NSamoylovichning «Dramaticheskaya literatura sartov» kabi maqolalarida jadid dramalariga munosabatlar bildirilgan.

Ana shunday qisqa vaqt ichida erishilgan yutuq tarixiy sharoit mantig`idan kelib chiqqan holda asosli edi. Teatrning misilsiz ta`sir kuchini ko`rgan ziyolilar iloji boricha shu vaziyatni susaytirmaslik nuqtai nazardan qator pyesalar yozdilar. Ushbu asarlar ham xarakter xususiyatiga ko`ra «Padarkush»ga ancha yaqin turar edi.

Endigi kunda ma`rifatchilik g`oyasidan bir qadar chekinib, siyosiy kurashlarga targ`ib ruhida yozila boshlangan dramalarning yaratilishi 1916-1929-yillarga to`g`ri keladi. Bunga mardikorlikka qarshi isyonlar, keyinchalik Turkiston Muxtoriyati shaklidagi milliy ozodlik harkatlarining fojiali bositirilishi, erkinlikka tahdidning kuchayishi, bir so`z bilan aytganda, ijtimoiy turmushning nihoyatda og`irlashuvi sabab bo`ldi. Avvalgi faslda ko`rganimizdek, ilk dramalarda turmushdagi qoloqliklarga chora sifatida ilm-ma`rifatga da`vat kuchli

tasvirlangan. «Padarkush», «Biz va Siz» kabi dramalar garchi fojia ko`rinishida bo`lsa ham, asarda kuchli dramatizmdan ko`ra deklamatsiya ustuvor. Ya`ni sabab va oqibat uyg`unligi buzilgan, voqea tragik ko`rinishda bo`lsa-da, sabab Ziyoli kabi muallif g`oyasini tashigan obrazlar nutqidan anglashiladi.

1916- yildan keyin yozilgan dramalar esa mavzu ko`lami, ijtimoiy-siyosiy isyonning quyuqligi, milliy istiqlol g`oyasining markaziy planga olib o`tilganligi bilan ham o`zgarayotgan, mukammallashayotgan estetik prinsiplarning samarasi edi.

Bu yillar oralig`idagi dramatik asarlarni tahlil qiladigan bo`lsak, voqelar asosan «xorij» hayotidan olib yozilganiga guvoh bo`lamiz.

Abdurauf Fitratning «CHin sevish», «Hind ixtilolchilari», Abdulla Avloniynning «Portugaliya inqilobi» kabi dramalarida chet el mavzusi tanlab olingan. Agar «CHin sevish» dramasi» haqidagi ma`lumotlarga ahmiyat qaratadigan bo`lsak, asar 1910- yillarning so`ngida yozilgan, 1920- yili chop etilgan. Asarning 1920- yildayoq sahnalashtirilganligini taqriz-maqolalardan bilish mumkin. Masalan, Vadud Mahmud «CHin sevish» postanovkasi haqida» nomli taqrizida asarning yuksak saviyada yozilganini e`tirof etadi. Adabiyotni teran idrok etgan va uni yaxshi tushungan adabiyotshunos Vadud Mahmud ushbu asarni shu kungacha o`ynalib kelingan asarlarning «eng kuchlisi, eng buyugi» deb e`tirof etadi va ayni shu haqiqat jadid dramaturgiyasining eng takomil nuqtaga ko`tarila boshlaganini ko`rsatadi, desak yanglishmagan bo`lamiz.

Fitratning «CHin sevish» dramasi muayyan bir millatning, xalqning ozodlik to`g`risidagi idealini ifodalovchi asar sifatida e`tiborini tortadi. «Hamid Olimjon «Fitratning adabiy ijodi haqida» nomli maqolasida» Fitrat mavzuda Hindiston hayotiga ketsa ham mazmunda tamoman Turkistonda qoladi»<sup>16</sup>, deb yozadi. Bunga sabab, muallif ongi zahirasiidagi tushunchalardan ortig`ini ifodalay olmasligi bo`lsa, ikkinchidan, har bir asar mazmunida, umuminsoniy mavzuga bag`ishlangan

¹⁶ Олимжон Ҳ. Мукамал асарлар тўплами. 12 томлик. –Т.: Фан, 1982, 6 том. –Б.220.

bo'lishidan qat'i nazar muallif shaxsiyatida barqarorlashgan milliy unsurlar ham aks etadi. Ya'ni har bir inson muayyan mamlakat, shahar yoki qishloqqa mansub bo'lib, shaxs sifatida shakllanish jarayonida o'sha geografik muhitga xos an'ana, e'tiqod, yashash tarzi kabi ko'nikmalarni hosil qilib boradi. SHuning uchun Fitrat hindistonlik obrazini yoki farangi millatiga mansub shaxslarni asarga olib kiradimi, baribir shaxsiyatidagi milliylik «tamom Turkistonda qolish»ga sabab bo'ladi. Bunday holat nafaqat jadid dramaturgiyasi, balki she'riyati namunalarida ham uchraydi. Masalan, CHo'lponning «Istiqlol» she'ri ham Turkiya hayotiga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir Turkistonni nazarda tutganini ilg'ash qiyin emas. «Istiqlol she'rida shoir Kerzonning «Turkiyaga biz istiqlool beramiz», degan so'zlarini epigraf qilib oladi. CHo'lponning she'ri to'laligicha kinoyaviylik ruhi bilan yo'g'rilgan. SHoir Turkiyaga berilgan istiqlool haqida batafsil to'xtalib jumladan shunday yozadi:

U shundoq istiqloolkim, Turkiyaga berilmish,
Uni olgan Turkiyani ko'ramizkim, hur bo'lmish:
Poytaxti Istambulg'a to'lib olgan angiliz,
Turk xalqidan u yerlarda na bir asar, na bir iz.
Har harakat qilig'iga qorovullar qo'yganlar,
Bir oz erkin tushunganning ko'zlarini o'yganlar,¹⁷ -
deb yozadi.

She'r 1922- yilda yozilganini inobatga olsak, bu yillarda Fitrat va CHo'lpon orasidagi munosabat ancha yaqinlashgan davr edi. Demak, g'oyaviy, adabiy qarashlaridagi mushtaraklikning bo'lishi tabiiy edi. Professor N.Karimov Fitrat va CHo'lponning adabiy do'stligi haqida yozar ekan, Fitratning inqilob to'g'risidagi qarashlariga ham to'xtaladi.¹⁸

¹⁷ Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. I жилд. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. –Б.152.

¹⁸ Каримов Н. Истиқлолни уйғотган ш ўoir. –Т.:Маънавият, 2000. –Б.11-12.

Abdurauf Fitrat qalamiga mansub «CHin sevis» dramasinig dastlabki qismlaridayoq Karimbaxshxonning bog`chasi va erta tongdanoq kitob o`qib o`tirgan qiz tasviri keltiriladi. Muallif uni qizil ipakli ko`ylakda deb tanishtiradi. Qizil rang ayni balog`at, jo`shqinlik, go`zallikni anglatadi. Adabiyotshunos B.To`xliev «Qutadg`u bilig»da qizil rang yoshlik pallasini bildirishini va aksincha, tushunchamizga o`rnashib qolgan yashil rang esa intihoni, hatto o`limni tasvirlashini yozgan. Umuman, estetik idealni ifodalashda rang, musiqa, tabiat hodisalari tasviri ham o`ziga xos o`rin tutadi. Zulayhonnig ipak ko`ylagi uning o`ziga to`q oila vakilasi ekanini ko`rsatsa, qo`lidagi kitob esa savodi ham havas qilgudek darajadaligini bildiradi. Chunki Zulayho yozuvchining idealidagi qiz obrazidir.

Ijodkor qahramonining qaddi-yu kamolotini oshiq yigitlar tilidan bayon etadi. Chunki uning go`zalligi bu ta`rifu tavsiflarida yorqinroq gavdalanadi. Masalan, Rahmatullohxon: «Shuncha gul tusalari bilan bulbul o`qishlarig`a boqmay, kitob mutolasig`a berilishingizni ko`rganlar, turishingizni tasvir etmak uchun Tangridan shoirlik istaylar»¹⁹. Yoki boshqa bir o`rnida: «erta bilan sizning quyoshdan burun chiqib, shub og`chada o`tirishingizni ko`rgan gullar, og`ochlar va yaproqlarning har biri dahi bir shoir bo`lg`on va har birining yuragidan turli she`rlar qo`bg`an bo`lsa kerak»<sup>20</sup>, deydi. Demak, Zulayho go`zalligiga gullar havas qilg`an, sarv qomatiga daraxtlar tahsin o`qigan, vujudidagi nafislik, qalbidagi hayo titrog`idan yaproqlar andoza olgan.

Ko`rinyaptiki, ko`z oldimizda jismoniy va ma`naviy go`zallikning betakror timsoli gavdalanadi. Nuriddinning Zulayhoga taqdim etgan kitobidagi she`rda ham «qizil gul» so`zi bir necha o`rinda ishlatiladi. Bu ideal qahramonning ajoyib fazilatlarini yanada oydinroq tasavvur qilish imkonini yaratadi. Garchi muallif dramani ishq-i-hissiy deb atasa-da, bu baho o`zini to`liq oqlamaydi. To`g`ri, dastlab

¹⁹ Фитрат Танланган асарлар. IV жилдлик. III жилд. –Т.: Маънавият, 2003. –Б.7.

²⁰ Ўша асар. –Б.8.

sevgi-muhabbat mavzusidan boshlangan vaqelar rivoji boshqa – ozodlik ishq tomon keskin burladi, Rahmatulloh va Nuriddin bir qizga ko`ngil qo`ygan, ikkalasi ham shoir, ovropoda o`qib kelgan. Zohiran har ikkisi oshiq bo`lsa-da, mohiyatan ishq borasidagi fikrlari turlicha. Nuriddinning sevgisi mumtoz adabiyotda tasvirlangan ilohiy ishq tushunchasining zamonaviy talqinidir. U «sevgi yurakning xazinasidir, xazinani saqlamoq teyishdur» qabilida fikrlaydi. Nuriddin majnunlar farhodlar kabi sharqda etishgan ishq avliyolari etagini ‘tutgan, shu yo`l bilan buyuklikka etishgan, kamolotga yetgan chin oshiq timsolidir.

Asardagi Rahmatulloxon havas va nafsning quli bo`lgan qahramondir. U Ovrupodan nimaniki o`rgangan bo`lsa, hech bir mushohadasiz amal qilishga intiladi. Bunday holatga munosabat Abudlla Avloniyning «Madaniyat to`lqinlari» maqolasida ham uchraydi. Adib «ba`zi yoshlarimizga o`xshash usti yaltiragan, ichi qaltiragan bo`lub, boshlariga ovrupe qalpog`ini kiyub «Madaniyat!», «Madaniyat!» avozlarini ko`pirtirub, oz-moz musulmoncha, chala-yarim ruscha so`zlashub kulgu bo`lub yurmak madaniyat bo`lmay, masxarabozlikning bir sho`basidur»<sup>21</sup>, deb o`zligini yo`qotayogan yoshlardan tashvishga tushadi.

Fitrat qalamga olgan nainki ishqiy-hissiy, balki ozodlik yo`lidagi qahramonlik asari ham fojia bilan intiho topadi.

El tanigan, yurt ko`rgan, eng achinarlisi shoir, ziyoli degan nomni ko`tarib yurgani holda o`zining hoyu-havaslari evaziga nafaqat do`stini, hammaslak shoirni, kerak bo`lsa, vatanini sotishga tayyor «yurtchilar» mavjudligini, istiqlol yo`lidagi dastlabki kurashning shafqatsizlarcha bostirilishi ilohdan yuborilgan ilhom orqali badiiy bashorat qilinganidek, go`yo.

Nuriddinxonning «qayg`urmangiz, zolim angiliz ostinda ezilg`onlar, qop-qorong`u kechangizningda tongi bordur», degan hayqirig`ida aslida Fitratnig erk ideali yashiringan edi. Yoki botayotgan quyosh qarshisidagi monologida ham yorug`lik va zulmat, umid va umidsizlik, haq va nohaqlik o`rtasidagi

²¹ Авлоний А. Танланган асарлар. II жилдлик. II жилд. –Т.: Маънавият, 1998. –Б.219.

sargardonlikdan keyin albatta quyoshning qayta bosh ko'tarishi – yaxshi kunlarning muqarrarliliga ishonch yo'q emas. Bu ishonch tuyg'usi Nuriddinga keltirgan xabarga munosabatda ham ko'rinadi:

«Sarvarxon - Hukumatning turmasidan qochg'oning uchun sening o'limingni buyurmishlar.

Nuriddinxon – O'zlarining-da o'lim chog'lari yetishgan!

Nuriddinxon kurash so'ngida g'alaba, muzaffariyat qo'lga kiritilishiga ig'volari bo'lmaganida, balki kurash kutilgan natijani ham berardi. Lekin haqiqatning o'zani achchiq bo'lsa-da, boshqa tarafga burib yuborildi. Dushman qo'li baland kelib, Nuriddinxon singari asl milltaparvarlar, ixtilolchilar jismoniy mahv etildi. Nuriddinxonning so'nggi so'z ham Rahmatullohxonga qarata aytiladi. «Oh... yurtni sotgan olchoq!», - bu nafaqat bosh qahramonning, balki ijodkorning soxta yurtparvarga nafratining ifodasi bo'ldi.

«Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» dramalari mazmunida ikkita ramziy ma'no yashiringan ikki timsol borki, ular haqida to'xtalmaslik qiyin. «Chin sevish»dagi quyosh» va «Hind ixtilolchilari»dagi bulbul tushunchalari ramziy ma'no yashirgan timsollardir. Muallif bu timsollardan o'z ma'rifiy g'oyalarini tashuvchisi sifatida foydalangan. Fitrat bu timsollar ramzini ko'proq pyesalarning o'zagini tashkil qilgan ozodlik, erk, milliy mustaqillik g'oyalariga bog'liq holda yo'naltirgan.

«CHin sevish»ning birinchi pardasi Nuriddinning Karimbaxshxon uyida botayotgan quyoshga qarab 'turgan shoirona holati bilan boshlanadi. U «Botib turgan quyoshni tomosha qilar»ga qadar qanchadan-qancha azob ko'radi, ingliz mustamlakachilarining zulmini o'z boshida sinaydi. Dramaturg zulmga qarshi kurash haqidagi g'oyani Nuriddinning ruhiy kechinmalari ifodasi bo'lgan monologi orqali go'zal ifodalaydi.: «Nuriddin (botib turgan quyoshga qarab): Boyaqish quyosh... Quting o'chmish, qip-qizil olov chechagi bo'lgan yuzing kuz yaproqlaridek sarg'ayib qolmish. Mundayin umid tonglarinda kula-kula chiqqandan keyin umidsizlik qorong'usi ostinda sarg'ayib botishing, bilmam,

nechanchi daf'asi bo'ldi?» Yer yuzining eng qorong'u puchmoqlarida insonlar tomonidan ishlangan eng yashirin qonli o'yinlarning barchasi noib ko'ra olg'onsen. Bir muarrix bo'lsa eding!..

Xalqning, haqsizlikning ustunligi mangulik bir ish bo'lsa edi, sening yer yuzindagi hukumatining oriqsiz va tuganmas bo'lur edi. Holbuki, 12 soatdan keyin o'zo` taxtingni qorong'uliknig oyoqlari ostiga tashlab qo'ya beribsan. Yer yuzining hukumatini million-million yildan beri qorong'ulik bilan uloshib olmoqqa ko'nib turishing haqning-da, haqsizlikning-da mangulik, ustunliklariga ishong'onlar uchun qattiq bir tayoqdir. Lekin kim onglar?!...

Chiqasen, kurashasen, yengilasen, qochasen, bir ozdan keyin yangidan bosh ko'tarib, yer yuzini yoritasen, zulmga qarshi kurashganlar sendan saboq olsinlar»²².

Botib borayotgna quyosh Fitrat talqinida endi shunchaki tabiat boyligi emas, balki butun bir xalqnig ramziy timsoli bo'lib gavdalanadi. Bu xalq shu qadar ulug`, shu qadar qudratli ediki, uning g'alabasiga mag'lubiyati, chiqishi va botishi bor. Bu tabiatning qonuni kabi muqarrardir. Ammo dramaturg talqiniga ko'ra yon berishlar mag'lubiyat emas, balki nafas rostdash uchundir, ya'ni yangidan kuch to'plash uchun zarurlik kasb etadi. Quyoshning umid tonglarida kula-kula» chiqqani mazlum xalqlarning ozodlik uchun umid chechaklari bo'lsa, zolimlar tomonidan bu chechaklarning bosib toptalishi «quyoshning umidsizlik qorong'usi ostinda sarg'ayib botishi»ga ishora qilinadi.

Xullas. Quyosh timsolining mohiyatini to'g'ri anglash dramaning mazmun-mohiyatiga chuqurroq yetib borishga yordam beradi.

Garchi asar markaziga o'qimishli, ziyoli hind yigiti Rahimbaxsh tursa-da, dunyoqarashi, fikriy uyg'oqligi jihatidan uning sevgilisi Dilnavoz obrazi nisbatan faolroq ishlangan. Dilnavoz – shoirtabiat, go'zal, eng asosiysi, vatanparvar hind qizi timsolidir. Uning Rahimbaxshga «Meni Hindistonni sevganingcha

²² Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилдлик. III жилд. –Т.: Маънавият, 2003. –Б.43

sevarmisan?» degan savoli dramaturgning original topilmasidir. Yigitning «Hindistonni sevganim, seni sevganim emasmi?», - deb aytgan javobida ham vatan tuyg`usi, yurtga bo`lgan sevgi muayyan insonga bo`lgan muhabbatdan ustun turishi lozimligini ko`rsatadi. Dilnavoz Rahimbaxsh tilidan «malaklar bog`ining chechagi», «chechaklar dunyosinnig qushi», «nozli malak» sifatida tariflanadi. Mana shu nozli malak nafaqat chiroyda, balki aql-farosatda ham tengsizdir. Negaki, uning «anglizga qarshi bir kuch deganing hind ulusini-da, musulmon dunyosini-da ko`z oldig`a keltiri qara. Nimalar ko`rasan: kishiga o`xshagan bir yig`in jonli narsalar. Miyalari tomug`- puchmog`larindan qorong`uroq. Ko`zlari oyoq ostindan nariroqni ko`rmaydir. Yuzlari keyinga qaytg`an, tutash, keyinga qaraylar. Jon ozug`in, ko`z yorug`in keyindan axtaralar. Olg`a bormoq, kelgusini o`ylamoqdan «kufr» deb bilarlar. Miyalari eski, tushunchalari eski, qarashlari, qiliqlari eski. eskilikka topinarlar. Eng buyuk kishilari – o`lik. Eng to`g`ri yerlari – mozor. Yashamoqqa topinarlar. Odamlarcha yashamoq yo`lini axtarmaylar. Butun dunyo bularni talamoq uchun birlashgan ekan, bunlar talovdan qutulmoq uchun birlashmaylar» kabi so`zlari o`tkir siyosatdon, nuktadon, zamon va dunyo ishlaridan boxabarligini yana bir karra isbotlaydi. Fitratning «Chin sevis», «Hind ixtilolchilari» dramalari voqealari Hindistonda bo`lib o`tadi. «Hind ixtilolchilari» asarida Hindistonni Angliya hukmronligidan qutqarish, mustaqillikka erishish g'oyasi aks etgan. Dramada musulmon f'arzandlari Rahimbaxsh bilan Dilnavozlarning ishq qissalari hindlarning istiqlol haqidagi armonlari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan.

Rahimbaxsh bilan Dilnavoz bir-birini sevadi. Biroq bu sof sevgiga ingliz ofitseri Okunar g'ov bo'ladi va u qizni olib qochadi. Hind nichnalkashlari esa Dilnavozni mustamlakachi ofitser iskanjasidan qutqarishda musulmonlarga yaqindan ko'maklashadi. Asarda hindlar bilan musulmonlar: «Yurtimizni mustamlakachilar zulmidan qutqaramiz. Yashasin, istiqlol!» shiori asosida birlashib, mustamlakachilarga qarshi kurashadilar. Zero, Vatan istiqloli na millat. na c'tiqod tanlaydi. Asar g'oyasini quyidagi dialog yaqqol ifodalaydi:

Rahimbaxsh.-IngWzmng eng yaxshi tarbiyasi uni Hindistondan quvmoqdir... Bir yovni yurtidan haydamoq — bir yurtni yov qo'lida qo'rmoqdan qiyin cmasdir,

Dilnavoz: Anglizni Hindistondan quvmoq... *Rahimbaxsh.*Ezgu ishlarning birinchisidir

«Hind ixtilolchilari» tragediyasida voqea va obrazlar Hindiston hayotidan olingan bo'lsa-da, bu asar aslida chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini fosh etishga, chorizim zulmi ostida chizilgan Turkisfon xalqlarini mustaqillik uchun kurashga chaqirishga qaratilgan. Fitratning «Hind ixtilolchilari» asarida tashbehlarga yashiringan ezgu orzusi ham ana shunda. Dramaturg o'z ona Vatani — O'zbekistonni mustaqil, o'z xalqini har qanday zulm va cheklashlardan ozod holda ko'rishni istagan va bu istakni asarda o'ziga xos tarzda, majoziy usulda ifodalagan. Hamid Olimjon dramaning bu xususiyati haqida «Fitrat Hindistonni Turkistonda turib tasvirlaydi. Shuning uchun Hindiston kartinasi Fitratga faqat bir fon, bir libos bo'libgina xizmat qiladi. U Hindiston millatchilarining kurashlarini ko'rsatish yo'li bilan Turkiston millatchilarining harakatiga nisbatan o'z munosabatini tayinlaydi»²³, — deb yozgan edi.

Xullas, 1916 yildan keyin yozilgan dramalar ham fojia bilan yakun topgan bo'lsa-da, fojialar mohiyati tubdan o'zgargan. Ilk dramalarda xotin-qizlarning mavqei deyarli ko'zga tashlanmaydi. Ular boshiga tushgan kulfatga yagona najot deb og'u, zaharni biladilar. Keyingi dramalarda esa Zulayho, Dilnavoz, Yorqinoy kabi ruhan va jismonan yetuk, voqealarga nafaqat munosabat bildirishga, balki uni harakatlantirishga qodir ayollar obrazi kirib keldi. Yozuvchi estetik idealini belgilagan bunday ayollar obrazi keyingi nasrimiz va dramaturgiyamiz tadrijida ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Kumushbibi, ayniqsa, Ra'nodagi jasoratnig ildizi aslida Fitratning Zulayho, Dilnavoz, Cho'lponnig novoy qiz, Yorqinoy kabi ideal qahramonlarida shakllanayotgan edi.

²³ H Olimjon. Tanlangan asarlar. 3 tomlik. 2-tom. -- T.: 1960. 23-b.

Shuni ham ta'kidlash mumkinki, bunday ayolllar timoslining dramaturgiya sahnasiga kirib kelishi keyingi davrlarda ham davom etdi. Bunday ruhdagi asarlarnig eng go'zal namunasi sifatida Hamzaning «Maysaraning ishi» komediyasini ko'rsatish mumkin. Hamzaning dramaturglik faoliyatida «Maysaraning ishi» komediyasi alohida ahamiyatga ega. Bu asar asosida yotgan dramatik fabula jahon xalqlari og'zaki ijodi orqali ular yozma adabiyotining ko'pgina namunalariga ko'chgan, bu asarlarda tasvir etilgan voqeani haraktaga keltiruvchi «motor» vazifasini o'tagan.

Pyesa qahramonlari Oyxon va Cho'pon bir birlarini sevadilar. Ammo qahramonlar «maxtovdan ortiq chiroyli uzun soch, shirin so'z» Oyxonni Mulla Ro'zi (qozining a'lami) Hidoyatxon (qozining o'g'li) va payg'ambar yoshiga kirib quyulmagan Qozi kalonning o'zi ham o'z hirslari domiga tortmoqchi bo'ladilar. Ularning bu qabih niyati tabdirkor, «botir yurak» Maysara tufayli chok-chokidan ketadi. O'z hiylasi domiga ilintirgan Maysara ularning biri ustiga sigir, ikkinchisining ustiga echki terisini yopib, uchinchisini esa beshmakka belab, xalq o'rtasida sharmandai sharmisor qiladi.

Ko'rinyaptiki, asar qahramoni bo'lgan ayol yon-atrofidagi o'zini kattaman deb yurgan, elning ustidan hukmronligini o'tkazayotgan kimsalardan aql-zakovati, jasurligi bilan ustun kela olmoqda.

II.2. Estetik ideal va ijtimoiy voqelik talqini

Jadid ma'rifatparvarlari ijodida ijtimoiy hayot va voqelik ideal jamiyat orzusi bilan bog'liq holda aks ettiriladi.

Istiqlol evaziga ta'min etiluvchi erkin va mukammal jamiyat orzusi Avloniynig «Portugaliya inqilobi»da davom ettirildi. Jumhuriyatchi Garsionnig «...albatta eng muqaddas maqsadimiz hurriyat va ozodlik, bu zolim va mustabid hukumatni yiqub, jumhuriyat bayrog'ini tiklagunimizcha vujudga chiqmas. Bu

ishni yuzaga chiqarmoq uchun allaqancha sa'y va g'ayrat, fidokorlik lozimdur»²⁴, degan so'zlari Avloniy boshliq jadidchilik harakati va adabiyoti namoyandalarining mushtarak tilaklari edi.

Xulosa qilib aytganda, SH.Rizayev 1917-1924-yillarni o'zbek adabiyotida dramaturgiyaning yetakchi janr bo'lgan davri deb ko'rsatadi. «Fitrat, CHO'lpon, Hamza, G'ulom Zafariy, Xurshid, Abdulla Badriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, G'ozir Yunus kabi dramaturglarning badiiy mumtoz, g'oyaviy o'tkir, janr e'tiboriga ko'ra g'oyat muvaffaqiyatli sahna asarlari shu davrda yaratildi va sahnalashtirildi»²⁵. Mazkur yillar oralig'ida «Muxtoriyat yoki avtonomiya», O'ch» (Hamza asari), «Portugaliya inqilobi» (Avloniy asari), «Hind ixtilolchilari» (Fitrat asari) kabi inqilobiy idealli, «CHin sevish», «Abulfayzxon» (Fitrat asarlari), «Yorqinoy» (CHO'lpon asari) kabi inson va hayotning turli qirralari turfa rakurslarda, goh o'tmish, goh kelajakka ekskursiya tarzida mualliflarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, etik, estetik ideallari aks etgan betakror asarlar ijod qilindi.

Abdurauf Fitrat «Abulfayzxon» dramasi orqali o'z hukmronligi ostida bo'lgan xalqning turmush tarzi, og'ir yengili u yoqda tursin, saroyda bo'layotgan hodisalardan ham bexabar, loqayd amrlarni qattiq tanqid qiladi.

Ibrohimbiy otaliqning: ««u elga yomonlik qildi, yurtni taladi, hukumat ishlariga qaramadi. Kecha-kunduz chog'ir ichib yotdi», degan so'zlari aslida Fitratning alamli nidosi edi. Toju-u taxt talashish, mansab uchun har qanday qabihlikka tayyor kimsalarga nafratdan tug'ilgan fig'on Xayol obrazi vositasida yanada yaqqolroq aks etgan. «Sen fazilatliq bilimlarning qo'l, qanotlarini uzib tashladi. Inju tizg'uchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgisiga aylanturdig. Ota pichog'i bilan bolalarni bo'g'uzlading. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding. Dalaning erkini, sho'roning tinchini, erlarning g'ayratini, xotunlarnig ismatini

²⁴ Авлоний а. Танланган асарлар. II жилдлик. II жилд. –Т.: Маънавият, 1998. –Б.189.

²⁵ Ризаве Ш. Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997. –Б.110.

talatdung».²⁶ Bu yerda muallif boylik, savratga emas, balki uni but darajasiga aylantirgan johillarga qarshi soʻzlamoda va uning noroziligi ortida ilm-fan, madaniyat, asosiysi xalq manfaatini himoya qiladigan odil hukmdor orzusi ham yoʻq emas. Yurt qaygʻusi» sochmasida «Turkning yurti, ulogʻi, oʻchogʻi, Turoni yot qoʻllargʻa tushdi», deb iztirob chekadi, «mening qoʻllarimdan tut»²⁷, deya Temur ruhidan madad soʻraydi.

«Temur sagʻanasi» tragcdiyasida koʻp yillardan beri mustamlakachilar zulmi ostida ezilib, xoru-zor boʻlgan Turkiston xalqlarining dardu alamlari va orzu-istaklari aks etirilgan. Asarda koʻrsatilishicha, mustamlakachilar zulmidan azob chekkan bir turk oʻgʻloni buyuk bobomiz Amir Tcmur qabriga madad izlab boradi. Sohibqiron ruhiga mustamlakachilardan jazo-zulm koʻrib, gʻam chekib ezilgan, qonli koʻz yoshlari sel boʻlib oqqan Turk elining qaygʻu-hasratlarini toʻkib, undan imdod izlaydi. Amir Temur sagʻanasi oldida tiz choʻkib: *«Xoqonim, ezilib talangan, lalanib yiqitgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan koʻtik istarga keldi. Bogʻluri buzilgan, choʻliari boʻlgan, bulbullari uchirilgan Turonningbir qorovuli'saiga arz etarga keldi»*, — deb iltijo qiladi.

Muallif orzu-armonlarini Amir Tcmur tilidan aytib, shu badiiy yechim orqali oʻz gʻoyalarini oʻtkazmoqni oʻylaydi: *«Men sizlarga koʻp narsalarni yetkardim. Ne boʻldiki, bir zamonlar sharaflı va jasur boʻlgan bir millatning avlodlari hozir boshqa bir millatning zulmi ostida qolmish... Kimlar bogʻlaringdan qushlarimni quvmoqda! Otalar merosidan nima oldingiz! Sizdan talab qilaman: xalqingiz. Oʻlkani luzaiingiz. avlodlarinmi hur yashamoqlarini la 'ruin etingiz. Agar bunday qilmasangiz, oʻlkamiz buyuk bir mozor holiga keladi»*²⁸». Koʻrinadiki, «Tcmur sagʻanasi» tragediyasida turk ulusining kuch-qudrati, buyuk qadriyatlari, ezgu anʼanalari ulugʻlanib. mustamlakachilikka, zulm va istibdodga qarshi birlashib kurashishga daʼvat etiladi.

²⁶ Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. —Т.: Маънавият, 2000. —Б.219.

²⁷ Ўша асар, -Б.34.

Iste`dodli dramaturg Abdulhamid Sulaymon o`g`li CHo`lpon qalamiga mansub «Yorqinoy» dramasida ham asosan yurt va millat manfaati masalasi bosh mavzu bo`lib qolaveradi. Garchi asarda Yorqinoy va Po`lat muhabbati ham aks etgan bo`lsa-da, lekin drama finalida boshqa mualliflar ijodida kuzatilganidek, bu otashin muhabbat vatan, xalq ishq bilan almasha boradi. Po`latnig Yorqinoyga qarata «Toj-u taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... Uni o`ylash kerak. Uning g`amini yeyish kerak...»²⁸, degan so`zlari beixtiyor Fitrat qahramonining «Hindistonni sevganim, seni sevganim emasmi?!» degan jumllarini eslatadi. Demak, CHo`lponnig ideali ham adolatparvar hukmdor va xalqning farovon hayoti. Dramada Po`latdan ham ko`ra Yorqinoy o`zinnig tadbirkorligi, jasurligi, botirligi bilan ajralib turadi. Drama xalq qahramonlik ertaklarini yodga soladi, lekin bu adib orzusini yaqqol aks ettirish uchun tanlangan yaxshi usul ekanligi vajidan o`zini to`la oqlaydi.

«Yorqinoy dramasi Cho`lpon ijodida alohida o`ringa ega.

20-yillarda drama tomoshabinlar orasida juda kata shuhrat qozongan. Uning yetti yil ichida uch marta sahnalashtirilganining o`ziyoq fikrimizni dalillaydi. «Yorqinoy» birinchi marta Uyg`un tomonidan sahnalashtirilgan va 1920- yilning 26- noyabrida namoyish qilingan. Ikkinchi marta «Yorqinoy»ni o`sha davrning taniqli rejissori tataristonlik Kamol Ikkinchi 1926- yili sahnalashtirgan. Uchinchi marta esa asarga yana Uyg`un murojaat qiladi va uni 1927- yili sahnaga qo`yadi. Bu gal Yorqinoy rolini Moskvada o`qib qaytib kelgan Zamira Hidoyatova ijro etgan.

Romantik bo`yoqlarga boy bo`lgan bu dramaning bosh qahramonlari Yorqinoy va Po`latdir. Ularning tevaragida O`lmas botir, Nishabsoy begi, Kal, Momo xotin, xizmatchi qiz Qumri, Xonzoda kabi personajlar harakat qiladi. Ularning o`zaro to`qnashuvida muallif kishini o`ylashga undaydigan, qalbini larzaga soladigan umuminsoniy masalalarni qo`yadi.

²⁸ Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. I жилд. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. –Б.303-304.

Pyesada muallifning diqqat markazida Yorqinoy bilan Po`lat o`rtasidagi ishq-muhabbat turadi. Biroq dramaturg ularning muhabbatini ko`rsatish orqali ko`p asrlar mobaynida xalq og`zaki ijodida ham, mumtoz adabiyotda ham ko`p qalamga olingan ishq dostoniga yana bir yangi bob qo`shmoqchi emas. SHuning uchun u Yorqinoy va Po`lat sevgisini butun jilolari, quvonchu iztiroblari, hamma tovlanishlari bilan tasvirlashni maqsad qilib qo`ymagan. Pyesada Yorqinoyning sevgisi katta psixologik muammolarni qo`yishda bir vosita xolos. Bu yurak va tafakkur, his va burch o`rtasidagi munosabatlar, ular o`rtasida tez-tez tug`ilib turadigan konfliktlardir. Ko`p hollarda burch bilan hislarimiz o`rtasidagi ziddiyat bizni noto`g`ri yo`llarga boshlaydi, biz mayllarimiz, xohish o`ylarimiz, tuyg`ularimizga berilib, ularga iymon-ixtiyorimizni topshirib qo`yamiz-da, burchimizga xiyonat qilganimizni bilmay qolamiz. Pyesada ana shu mangu muammo – tuyg`u va burch orasidagi doimiy kurash yetakchilik qiladi.

Dramaning yetakchi qahramoni Yorqinoydir. Uning xarakterida CHo`lpon tasavvuridagi ideal o`zbek ayollarining fazilatlarini mujassamlangan. CHo`lpon bu obrazni yaratishda xalq og`zaki ijodining an`analariga amal qiladi. Ma`lumki, o`zbek xalq dostonlarida, ertaklarida ayol obraziga katta ehtirom sezilib turadi – ularda ayollar to`rt devor asirasi, nochor mushtipar, mungli kimsalar sifatida emas, ko`pincha o`z taqdirini o`z qo`li bilan yarata oladigan, o`z baxti uchun kurasha oladigan, hatto qo`liga qurol bilan adovat va haqiqatni himoya eta oladigan, hech qaysi jihati bilan erkak zotidan kam turmaydigan oqila, tadbirkor, shidlatli, jasur kishilar tarzida tasvirlanadi. Barchinoy, Zulfizar, Malikayi Xusnobod, Ozodachexra kabi qahramonlar shular jumlasidandir. Yorqinoy ham shaddodligi, barkamolligi, o`z baxti uchun dadil kurasha olishi bilan shu qahramonlarga o`xshab ketadi. Ammo, ayni chog`da, «Cho`lpon Yorqinoy obrazini yaratishda real hayotda mavjud biror real siymoni asos qilib olmagan» degan gapni qat`iy aytib bo`lmaydi. O`tmish hayotimizda mardligi, donoligi, kurashchanligi bilan dong chiqargan ayollar ancha-muncha bo`lgan. Jumladan, asrimiz boshlarida Farg`ona vodiysida va, ayniqsa Andijon viloyatida Qurbonjon dodho degan ayol mashxur

bo'lgan. Xalq o'rtasida u «Oloy malikasi» degan nom bilan dovuq topgan. U zulmga qarshi bosh ko'targani isyonchilarga bosh bo'lgan, necha martalab rus jazo qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratgan, o'glining qatlida pinxona ishtirok etgan va eng so'ngida polkovnik unvoniga sazovor bo'lgan. Cho'lpon Yorqinoy obrazini ishlashda ana shu afsonaviy qahramon siymosini nazarda tutgan ham bo'lishi mumkin.

Asarning ilk sahnalaridanoq Yorqinoy mustaqil harakat qiladigan, o'z sevgisi uchun kurasha oladigan ayol sifatida ko'rinadi. U badavlat xonadondan chiqqan. Otasi O'lmas botir «yurtning xondan eng ulug' kishisi». Yorqinoy O'lmas botirning yolg'iz qizi, uni juda yaxshi ko'radi, onasi vafot etgandan so'ng, qizini o'gay ona qo'lga bermaslik uchun, ikkinchi marta uylanmaydi. Yoshligidan unga qilich chopishni o'rgatadi. Lekin O'lmas botir Yorqinoyning har qancha yaxshi ko'rmasin eski rasm-rusumlar, urf-odatlar iskanjasidan qutulolmaydi — Yorqinoyning ko'ngli bilan hisoblashmasdi. Uni Xonzodaga bermoqchi. O'lmas botir Po'lat haqida eshitishni ham istamaydi, chunki oddiy bir bog'bon yigitni o'ziga teng ko'rmaydi.

Yorqinoy esa bu masalalarda otasidan ustun turadi. Davlat oshirish yo shuxratga erishish uchun emas, birinchi navbatda, o'zligini bildirish, o'z insoniyligini namoyish qilish vositasidir. Binobarin. «Yorqinoy»da shaxs erkinligi masalasi bilan bog'liq epizodlarga alohida o'rin berilgan. Yorqinoy qo'lga qilich olib insoniy g'ururini himoya qila oladigan kuchga ega qiz sifatida tasvirlanadi. Ularning o'zboshimchaligi, davom etadi. SHuning uchun ularga qarshi omonsiz kurashmoq adolat va insofni. nomus va hakatini chiqarmoq Po'lat uchun har narsadan, hatto sevgidan ham yuqori turadigan muqaddas his xisoblanadi.

SHu tarzda Cho'lpon Po'lat obrazi orqali xuddi Yorqinoy obrazidagi kabi yana burchni ulug'laydi. Dramadan shunday xulosa kelib chiqadiki, insonni inson qiladigan bir qancha qadriyatlar bor,— bular — sevgi, sadoqat, mehr-muruvvat. Biroq dunyoda ulardan ham zo'rroq narsalar mavjud. bular - nomus, mardlik insoniy g'urur. Biroq nomus ham, mardlik ham, insoniy g'urur ham faqat adolat

va haqiqat qaror topgan joydagina mavjud. SHuning uchun inson sevgisi uchun kurashishdan oldin adolat va haqiqat uchun kurashmog'i, zulm va zo'ravonlikka barham berib, erk g'alabasini ta'minlamog'i kerak, shundagina muhabbat saltanatiga yo'l ochiladi.

«Yorqinoy» dramasining so'nggi sahnalarida Po'lat tilidan ijtimoiy adolat haqida bir qancha teran fikrlar aytilgan. Uzoq kurashlar natijasila xon qo'lidan yengilib, toju taxt Po'latning qo'lga o'tadi. Bir qarashda Po'lat endilikda yurtni boshqarish ishini boshqalarga topshirishi, o'zi bir oz hordiq chiqarishi, Yorqinoy bilan davru davron surishi mumkin. Ammo Po'latning e'tiqodi bunga yo'l qo'ymaydi. Toju taxt Po'lat uchun og'ir yuk bu yukni ko'tarib yurishga majbur. Negaki Po'latning o'zi aytganidek, «toju taxtning orqasida el bor, yurt bor, xalq bor. Uni o'ylash kerak. Uning g'amini yeyish kerak». SHu tarzda Po'latning ajib bir fazilati namoyon bo'ladi. U Yorqinoyni sevadi, biroq uning bu sevgisi elu yurt sevgisi oldida ikkinchi o'rinda turadi.

Bog'bon yigit Po'lat bilan O'lmas Botir nomli sarkardaning qizi Yorqinoy bir-birini sevadi. Lekin sarkarda bu tengsiz sevgiga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatadi. U Xonzodani o'ziga kuyov qilmoqchi bo'ladi. Po'lat esa bu adolatsizlikka e'tiroz bildirib, sarkarda dargohini tark etadi: xalqning xonga qarshi jangovar harakatiga qo'shiladi. Zolim xonning O'lmas Botir sarkardalik qilgan qo'shiniga qarshi mardona jang qiladi.

Yorqinoy esa Kalning hiylasiga uchib. Nishobsoybegining changaliga tushadi. Vek Yorqinoyga: «Nikohga rozi bo'lmasa, bcnikoh qon to'kaman». — deb zo'ravonlik qilmoqchi bo'ladi. Voqea davomida qiz hiyla ishlatib, Kalni o'z tomoniga og'dirib oladi va uning ko'magida Vek tuzog'idan qutuladi. Po'lat huzuriga borib, unga haq yo'lida yordam bcradi. Asar Po'latning Yorqinoyga qarata: «Meni yurt uchun yana bir marotaba o'limdan qutqardingiz, keling, o'sha yurtning ishini birgalashib qilaylik! Yurtning ishini birgalashib qilgandan keyin...» — degan hayotbaxsh so'zlari bilan tugaydi.

Dramaning Yorqinoy. Po'lat, O'lmas Botir. Kal. Nishobsoybegi. Momo xotin singari asosiy obrazlari o'ziga xos xarakter bilan ta'minlangan. Shunga ko'ra ularning ma'naviy qiyofasi — ichki-tashqi olami. niyati, maqsadi va shu yo'ldagi xatti-harakati aniq.

Dramada Yorqinoy obrazi markaziy o'rinda turadi va u bosh qahramon sifatida asar voq'ealarining boshidan oxirigacha ishtirok etadi. Muallif Yorqinoy obrazi orqali xotin-qizlarning hayotini, ularning aql-idrokda, mardlik va shijoatda erkaklardan aslo qolishmasliklarini ochib bergan.

Po'lat obrazida mardlik. insonparvarlik, qiyinchilikdan qo'rqmaslik. kamtarlik singari ezgu xususiyatlar mujassamlashtirilgan. O'lmas Botir — o'zini katta oluvchi, qudratim har yoqqa yetadi deb o'ylovchi kishi. Lekin xonlik u yoqda tursin, o'zining yolg'iz qizini saqlay olmaganini ko'rgach, hayot haqidagi o'ylari chuvalashgan ota holatini ifoda etuvchi obrazdir. Vek timsolida esa noinsoflik, jabr-zulm va nopoklikni odat qilib olgan yovuz bek fosh etilgan.

Pyesada Kal obrazining ham o'ziga xos o'rni va vazifasi bor. Kal obrazi asarni xushchaqchaq kulgi va yumor bilan sug'organ. Kalning o'ziga xos fe'l-atvori, xususan, individual tili yorqin va jonli chiqqan. Dramaturg Kalning o'ziga xos tilini yaratishda xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan sa'j san'atidan ustalik bilan foydalangan. «Suvday shovillab, o'tday lovillab, chumchuqday chirillab, shamolday pirillab...», «O'zi yosh, so'zi tosh, ko'zi bebosh, qora qosh. esi chosh. vosh-vosh...». «Oyim poshsha, siz mening xudo bergan qizimsiz, ko'ksimda kulgan yulduzimsiz, qo'limga qo'ngan qunduzimsiz, yayrab yurgan qo'zimsiz, uchib o'ynagan qo'ng'izimsiz, qarab turgan ko'zimsiz. qizorib turgan yuzimsiz, to'kilib turgan so'zimsiz...» va hokazo.

«Yorqinoy» dramasida syujet qiziqarli, asosiy voqealar rivoji me'yorida. Asardagi hamma voqea va epizodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bunda dramaturg favqulodda voqea-hodisalar, ko'plab hayotiy detallar va jonli harakatlar topgan va ularni joy-joyida ishlatgan.

Xullas, «Yorqinoy» ishq-muhabbat mojarosini bir afsona tarzida bayon etuvchi romantik bir ertak emas, umumbashariy muammolar haqida bahs yurituvchi, erk va muhabbat, adolat va mardlik va nomus haqida naql qiluvchi, ko`pgina g`oyalari bilan bugungi kunda ham qimmatini yo`qotmagan ijtimoiy-falsafiy drama darajasiga ko`tarilgan asardir. Ayni paytda asar ijodkor estetik idealini namoyon etishda muhim rol o`ynaydi.

XULOSA

Jadid adabiyoti, jadid teatri san`atinnig azaliy va abadiy vazifasi bo`lgan inson ruhiyatining teran badiiy tadqiqini bosh maqsadi qilib belgilamaydi. Chunki ruhiyat tasviri uchun avvalo millat g`aflat uyqusidan uyg`onmog`i kerak edi. Jadidlar aynan xalqni uyg`otish, uni mutelik, qullik xayolidan qutqarish tilagi bilan tarix sahnasiga chiqdilar. Millatni ma`rifat nuri bilan qayta jonlantirib, ilm-u urfon orqali istiqbolga, istiqloлга yetishishni ko`zladilar. Bu yo`lda maktab, maorif, xayriya jamiyatlari, teatr kabilar tashkil etib, bulardan foydalandilar. Bular orasida, albatta, teatrning o`rni beqiyos bo`ldi.

Xulosa qilib aytganda, jadid dramaturgiyasida estetik ideal va komil inson masalasi qo`yilar ekan, bundan ijodkorlar bir necha badiiy maqsadlarni ko`zlashgan. Bularning eng yuqori pog`onasiga milliy istiqloл, erk va ozodlik masalasini qo`yadigan bo`lsak, ikkinchi o`rinda xalq farovonligi, uning ziyoli bo`lishiga intilish masalasi yotar edi.

Mavzuni yoritish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

- 1911-1917-yillar mobaynida yaratilgan dramatik asarlarda xudi she`riyatda bo`lgani kabi ilm-ma`rifat tushunchasi targ`ib qilindi. «Padarkush» (Domulla, Ziyoli), «Yangi maktab, eski maktab» (Komilboy, jadid muallimi) kabi dramalarda asosan ma`rifatli shaxs – yozuvchi estetik idealini belgilagani ma`lum bo`ldi. Maktablarni isloh qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng egallagan ochiq fikrli yoshlarni tarbiyalash; va buning uchun ota-onalarning ham zamon yangiliklaridan xabardor bo`lishi lozimligi ham aks etdi.

- «Baxtsiz kuyov» (Abdulla Qodiriy), «Biz va Siz» (Abdulla Avloniy), «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» (Hamza Hakimzoda Niyoziy), «Mazluma xotun», «To`y» (Hoji Muin) kabi dramalarda yozuvchi estetik ideali maishiy turmush va qahramonlar fojiasi fonida tasirlandi. Fojiaga duch bo`lgan har bir

qahramon aslida millat va jamiyatning biron bir illatini, kamchiligini o`zida ifodaladi.

- aksariyat dramalar yakunida bir xillik, ya`ni fojiviy yakun ko`zga tashlanadi. Davrning og`irligini, mutaassiblikning avj olganini yaqqol ko`rsatish uchun to`g`ri usul tanlangan edi.

- ijodkornning ijtimoiy, estetik, axloqiy ideali kulgi vositasida anglashiladigan dramalar adadi ham kengayib bordi. Dramalarda asosan qahramonlar o`z-o`zini fosh etdi. Kulgili vaziyatlar va shaxslar tasviri ortida aslida, yon-atorfdagi ayanchli manzara turganini ijodkorlar mahorat bilan tasivrlay oldi. Ifodalanayotgan johillar, ko`knorixo`rlar, bangilar yozuvchi idealidagi ma`rifatparvar, ziyoli qahramonlarni tasavvur etish vositasi ekanligi aniqlandi.

- davr dramaturgiyasida ma`rifatli inson asosiy estetik ideal sifatida ifodalandi. CHorasizlikdan qutilish, oilaviy tavomilga erishish, alaloqibat millat va jamiyatni yuqori ko`tarish yozuvchilarning mushtarak estetik idealiga aylandi.

- Milliy uyg`onish davri o`zbek dramaturgiyasining 1917- yildan keyingi takomili milliy ozodlik mavzusi bilan yo`g`rilgan holda taraqqiy topdi.

- darv dramaturgiyasining yorqin namunalari «Hind ixtilolchilari», «CHin sevis», «Portugaliya inqilobi» dramalarida milliy ozodlik kurashchisi ijodkor estetik idealidagi obraz sifatida talqin qilindi.

- juda ko`plab damalarda ayollar obrazi yetakchi planga chiqarildi va bu ayollar oddiy, ijtimoiy turmush ikir-chikirlariga sho`ng`igan ayollar emas, balki isyonkor, ziyoli, kurashchan ayollar timsollari edi.

Xulllas, davr dramaturgiyasi ijtimoiy asoslarga ega bo`lgan san`at namunalari sifatida e`tiborni tortadi.

Milliy uyg`onish, millatning o`zligini anglash jarayoni jadid adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qiladi. Milliy uyg`onish birgina adabiyot doirasida qolgani yo`q, ijtimoiy turmushning barcha qatlamlarini qamrab oldi, mustaqilchilik uchun kurashga kelib bog`landi.

Jadid ma`rifatparvar adbilari o`z dramatik asarlarida jaholatga qarshi kurash, ilm-ma`rifatni ulalish, yaxshilik, ezgulik oliyjanoblik saxovat kabi fazilatlarni yuksak badiiy joziba bilan ifoda etdilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, asrimiz boshlarida tug`ilgan yozma milliy dramaturgiya o`zining ibtido, tanazzul va taraqqiyot tarixiga ega bo`lib hisoblanadi. Bu tarixni esa ijtimoiy-siyosiy voqelik tarixidan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi. Binobarin, jadid adabiyoti, teatri va uning estetikasi ijtimoiy g`oya taqozosi va talabi bilan vujudga keldi hamda rivojlandi, ana shu g`oyaning qaror topmog`i uchun kurashdi, shu yo`lda xizmat qildi. Shu boisdan ham uning mavzu va g`oyaviy maqsadlarida, masallarining qo`yilishi va yechimida jadid ziyolilarining shu davrdagi maqsad va intilishlari to`la mujassamini topgan.

Jadidlarnig ko`zda tutgan konkret islohotchilik poziyalari, ijtimoiy munosabatlarni o`zgartirib, taraqqiy etgan jamiyat barpo etish va milliy ongni taraqqiy ettirish, natijada mustaqil davlat uchun kurash masalasi ular yaratgan sahna asarlari mavzu doirasini tashkil etadi. Demak, jadid dramaturgiyasining shakllanishi va taraqqiyoti, tadriji, rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-tarixiy jarayon bilan baravar takomil xususiyatlarini kasb etdi.

Milliy uyg`onish, millatning o`zligini anglash jarayoni jadid adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qiladi. Milliy uyg`onish birgina adabiyot doirasida qolgani yo`q, ijtimoiy turmushning barcha qatlamlarini qamrab oldi, mustaqilchilik uchun kurashga kelib bog`landi.

Jadid ma`rifatparvarlari teatrni ibodatxona, deb qaradilar. SHu sababli sahna asarlariga alohida bir mehr, e`tibor bilan qaradilar. CHunki buni teatr arboblrimiz estetik prinsip darajasiga ko`targan edilar. Balki shuning uchundir, xalqimiz teatrni muqaddas dargoh deb biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. Каримов И.А. Асарлар. Т.1. Ўзбекистон миллий истиқлол . Иқтисод. Сиёсат. Мафкура. - Т.: Ўзбекистон, 1996. -364 б.
2. Каримов И.А. Асарлар. Т.5. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. -Т.: Ўзбекистон, 1997.- 384 б.
3. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. –Т.: Маънавият, 1998. - 480 б.
4. Каримов И.А. Асарлар. Т.7. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. -Т.: Ўзбекистон, 1999. – 410 б.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. -129 б.
6. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.:Ўзбекистон, 2009. -40 б.

II Ilmiy risola, o'quv qo'llanma, darsliklar

1. Адабиёт назарияси. 1-2-том. Т.: Фан, 1978, 448-бет;
2. Адабий турлар ва жанрлар. 1-ж. Т: Фан. 1991. 423 б.
3. Алихонтўра Соғуний. Ватан аҳлларига деганларим. Ўзбекгим. “Ватан” серияси. Тошкент. 1992 й. 221 б.
4. Alpomish (O'zbek Xalq qahramonlik eposi) - Т.:Fan, 1999. - В. 99.
5. Аристотел. Поэтика. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. - 149 б.
6. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: Фан, 1964 й. 274 б.
7. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М., 1975. – 405 с.

8. Бертельс Е.Э. История персидско - таджикской литературы. - М.: Вост. лит., 1960.
9. Белинский В.Г. Адабий орзулар. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. -264 б.
10. Белинский В.Г. Танланган асарлар. -Т.: Ўздавнашр, 1955. -509 б.
- 11.Бехбудий М. Муҳтарам ёшларга мурожаат. “Ойна” журнали. 1914 й. 41-сон.
12. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. –Т: Ўқитувчи, 1978. 278-б.
13. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадиличлик. –Т.: Миллий кутубхона, 2007.- 286 б.
14. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.-Т.: Ўзбекистон, 1993.- 191 б.
15. Меҳмет Сарой. Турк дунёсида таълим ислоҳоти ва Гаспирали Исмоил. Анкара, 1987 й. 30-б.
16. Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. –Т.: Университет, 2003.- 124 б.
17. Исмоил Бей Гаспринский. Из наследия Русское мусульманство. Симферополь. 1991 г. Стр. 29.
18. Какие главные принципы должны быть в основу образования инородцев-мусульман? Туркестанский сборник, том 361, стр. 142.
19. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008. - 536 б.
20. Каримов Н. Чўлпон –Т.: «Шарқ» НМАК, 2003. -463 б.
21. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. Т.: Фан, 1982. - 127 б.
22. Мусульманские депутаты Государственной думы России 1906-1917 гг. Уфа, 1998 г. Стр. 178.
23. Муҳаммадиев Н. Эстетик идеал ва адабиёт. - Т.: Ўзбекистон, 1973. - Б.9.

24. Муҳаммаджонов Мўминжон. Турмуш урунишлари. Тошкент, 1923. -277 б.
25. Назаров Б. Жадидчилик: ислохот, янгилаш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т., 1999. – Б. 4-5.
26. Неъматов Ш. Ўзбек маърифатпарварлари яратган дарсликлар ва уларнинг дидактик асослари. –Т.: Фан, 2007. -107 б.
27. Норбоев Б. Истиқлол ва истеъдод тарбияси. -Т.: Ўқитувчи, 1996. -87 б.
28. Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. -Т.: Фан, 1976. -208 б.
29. Норматов У. Адабиётимизнинг ярим асри. - Т., 1967. - Б. 511-548.
30. Норматов У. Насримиз анъаналари. – Т., 1978. -140 б.
31. Норматов У. Насримиз уфқлари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. -208 б.
32. Норматов У. Талант тарбияси. - Т.: Ўқитувчи, 1980. -176 б.
33. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. -Т., 1981. - Б. 109-154.
34. Носиров Ў. Образларда услуб жиолари. -Т.: Фан, 1991. -196 б.
35. Носиров Ў. Бадиий услуб мавзусидан талқинлар //Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. -Т., 1981. -Б. 62-93.
36. Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси. –Т.: Фан, 1994. -100 б
37. Письмо Н.И.Ильминского к Обер-прокурору Святейшего Синода К.П.Победоносцеву. В книге «Мусульманские депутатк Государственной Думк России 1906-1917 гг.». Уфа, «Китап», 1998 г. Стр.120.
38. Расулов Т. Шоир Сўфизода ҳақида. (Сўфизода, “Тароналар” китобида) Тошкент. 1968 й. -6 б.
39. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. -Т.: Академия, 2004, 102 б.
40. Философская энциклопедия. - М., 1964. - С .459.

41. Чернишевский Н.Г. Полн.собр.сочин. в 15-х томах, т.ХР, М., Гослитиздат, 1949. –С.144.
42. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. Тошкент: Шарқ, 1995 й. -86 б.
43. Ўзбек совет энциклопедияси. Том 12, Т. : Энциклопедия, 1979. - 650 б.
44. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди -Т.: Ўқитувчи. 1990. -Б. 162.
45. O`zbekiston Respublikasi (Ensiklopediya). Т.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. -562 b.
46. O`zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Т.: Sharq, 2000. -463 b.
47. O`zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Т.: Sharq, 2000. -687 b.
48. Қаяумов А. Ишқ водийси чечаклари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1985. - Б. 15.
49. Ҳакимхон. Хотиралар. Тошкент: Фан, 1966 й. -43 б.
50. Қосимов Б. Маслакдошлар. –Т.: Шарқ, 1994. - 58 б.
51. Qosimov B. Milliy uyg`onish. –Т.: Ma`naviyat, 2002. -400 b.
52. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти (дарслик) -Т.: Ўқитувчи, 2005. -450 б.
53. Қўчқоров Р. Мен билан мунозара қилсангиз. –Т.: Маънавият, 1998. -94 б.
54. Ғаниев И. Фитрат ва фитратшунослик. -Т.: Фан, 2005. -300 б.
55. Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. -Т.: Фан, 2005. -281 б.

III Lug'atlar

1. Краткая литературная энциклопедия. Т.8 –М.: Советская энциклопедия. 1972. С.961.
2. Литературный энциклопедический словарь. –М.: Советская энциклопедия. 1987. С.516.
3. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1970. - 299 б.
4. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1979. 366-б.

IV Ilmiy maqolalar

1. Назаров Б. Катта йўл бошида (Адабий-танқидий мақолалар). –Т., 1987. - Б. 139.
2. Турсункул. 25 йиллик педагог. “Маориф ва ўқитувчи”, 1926 й. 4-сон. 29-б.
3. Шарипов Р. Фитратнинг «Мунозара» асарида маърифатпарварлик ғоялари // ЎТА, 2002. - №4. - Б. 22.
4. Ҳожи Муин. Биринчи ўзбек алифболари. “Маориф ва ўқитувчи” журнали. 1926 й. 2-сон.

V Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари. Филол.фанлари доктори дисс. Т.: 1991. 354-б.
2. Ҳасанов У. Халқ оғзаки ижоди ижтимоий-фалсафий ва эстетик ғоялар манбаи сифатида. Фал.ф.н. олиш учун дисс. Т., 1996. 123 б.

3. Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси. (Ғ.Ҳотам. Х.Дўстмуҳаммад, Н.Эшонқул ҳикоялари мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 2002.

VI Badiiy adabiyotlar

1. Бехбудий. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2006.
2. Маҳмуд Вадуд. Танланган асарлар. - Т.: Маънавият, 2007. - Б. 3
3. Садриддин Айний. Асарлар. Саккиз томлик, биринчи том. Тошкент: 1963 й. 198 б.
4. Fitrat.Tanlangan asarlar, II jild.-Т.: Ma`naviyat, 2000.- 206 б.
5. Fitrat.Tanlangan asarlar, IV jild.-Т.: Ma`naviyat, 2006.- 334 б.
6. Fitrat.Tanlangan asarlar, V jild.-Т.: Ma`naviyat, 2010.- 302 б.